

Foydali modelga O'zbekiston Respublikasi patentini berish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko'rib chiqish

## QOIDALARI

**(O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi direktorining 2004 yil 15 martdagi 14-son buyrug'i bilan TASDIQLANGAN, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yilning 29 aprelida 1343-son bilan RO'YXATDAN O'TKAZILGAN)**

I bob. Foydali modelga patent berish uchun talabnoma tuzish va topshirish. Talabnoma topshirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar

II bob. Patent idorasi bilan patent olish bo'yicha ishlarni olib borish

III bob. Talabnomani ko'rib chiqish

Mazkur Foydali modelga O'zbekiston Respublikasi patentini berish uchun talabnoma tuzish, topshirish va ko'rib chiqish Qoidalari (bundan buyon matnda Qoidalar deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan hamda foydali modelga patent berish uchun talabnomani tuzish, topshirish va ko'rib chiqish tartibini belgilaydi.

### **Qisqartirishlar ro'yxati:**

**Qonun** – O'zbekiston Respublikasining "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi Qonuni;

**Patent idorasi** – O'zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi;

**Talabnoma** – foydali modelga patent berish uchun talabnoma;

**Parij konvensiyasi** – Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasining O'zbekiston Respublikasi uchun amaldagi tahriri;

**Konvensiya talabnomasi** – Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasiga muvofiq topshirilgan talabnoma

**XPK** – Xalqaro patent klassifikatsiyasi

**BIMT** - Butunjahon intellektual mulk tashkiloti

**MO'T** - mashinada o'qish mumkin bo'lgan axborot tashuvchi

## **I bob. Foydali modelga patent berish uchun talabnoma tuzish va topshirish. Talabnoma topshirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar**

### 1-§. Foydali modelga patent uchun talabnoma

1. Qonunning 7-moddasiga muvofiq foydali model sifatida talabnoma berilgan obyekt, agar yangi va sanoatda qo'llaniladigan bo'lsa, huquqiy muhofaza qilinadi.

Foydali model, agar uning muhim belgilarining majmui texnika taraqqiyoti darajasidan ma'lum bo'lmasa, yangi hisoblanadi.

Texnika taraqqiyoti darajasi talabnomada ko'rsatilgan foydali model amalga oshirishi mumkin bo'lgan vazifalarni bajara oladigan vositalar haqidagi O'zbekiston Respublikasida hamma foydalana oladigan barcha ma'lumotlarni, shuningdek ularni qo'llashga doir ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Foydali model, agar amalda ishlata olinadigan bo'lsa, u sanoatda qo'llaniladigan hisoblanadi.

2. Qonunning 7-modda, oltinchi qismiga muvofiq, qurilmalarning konstruktiv yo'l bilan bajarilishi foydali modellarga kiradi.

Foydali modellarga, xususan, mashinalar, asboblari, apparatlar, uskunalari, mahkamlash buyumlari, mashinalarning detallari, aloqa vositalari, qurilish konstruksiyalari va boshqalar kiradi.

3. Quyidagilar foydali modellar sifatida e'tirof etilmaydi:

ilmiy nazariyalap va matematik usullar;

xo'jalikni tashkil etish va boshqarish usullari;

shartli belgilar, jadvallar, qoidalar;

aqliy operatsiyalarni bajarish qoidalari va usullari;

elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va algoritmlar;

binolar, inshootlar, hududlar rejasining sxemalari va loyihalari;

estetik talablarni qondirishga qaratilgan, buyumlarning faqat tashqi ko'rinishiga doir yechimlar;

integral sxemalar topologiyalari;

o'simliklar navlari va hayvonlar zotlari;

jamiyat manfaatlari, insonparvarlik va ahloqiy prinsiplariga zid yechimlar.

4. Qonunning 16-modda birinchi qismiga muvofiq talabnoma bitta foydali modelga yoki yagona ijodkorlik fikrini tashkil etgan bir-biri bilan uzviy bog'langan (foydali modelning birligi sharti) foydali modellar guruhiga taalluqli bo'lishi lozim.

Agar quyidagi shartlar bajarilgan bo'lsa foydali model birligi talabiga rioya etilgan deb e'tirof etiladi:

foydali model formulasida bir foydali model tavsiflangan bo'lsa;

foydali model formulasida quyidagi foydali modellar guruhi tavsiflangan bo'lsa:

prinsipial birdan-bir yo'l (variantlar) bilan xuddi o'sha texnikaviy natijaga erishishni ta'minlaydigan bir turdagi (bir qancha qurilmalar, bir qancha turlar va boshqalar), vazifasi bir xil bo'lgan obyektlarga taalluqli foydali modellar;

bir qurilmani olish (tayyorlash) uchun mo'ljallangan boshqa qurilma (masalan, qurilma va uni tayyorlash uchun qurilma);

biri boshqasidan foydalanish uchun yoki boshqasida foydalanish uchun mo'ljallangan (masalan, qurilma va uning tashkil etuvchi qismi) bo'lsa.

5. Qonunning 16-modda ikkinchi qismiga muvofiq talabnoma quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

a) patent berish to'g'risida foydali model muallifi (hammualliflari) va nomiga patent so'ralayotgan shaxslar (bundan buyon matnda talabnoma beruvchi deb yuritiladi), shuningdek ularning turar joylari va manzillari ko'rsatilgan ariza (1-ilova);

b) foydali modelni amalga oshirish uchun uni yetarli darajada to'liq ochib beradigan tavsifi;

v) foydali modelning mohiyatini ifodalovchi hamda tavsifga to'la mos keluvchi formulasi;

g) chizmalar va boshqa materiallar, agar ular foydali modelning mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lsa;

d) referat.

6. Talabnomaga belgilangan miqdorda patent boji to'langanini tasdiqlovchi hujjat yoki boj belgilangan miqdordan kam to'langan holda uning miqdorini kamaytirish uchun asoslarni tasdiqlovchi hujjat ilova etiladi.

7. Patent vakili orqali beriladigan talabnomaga, unga talabnoma beruvchi tomonidan berilgan va uning vakolatlarini tasdiqlovchi ishonchnoma yoki ishonchnomaning belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan nusxasi ilova etiladi.

8. Konvensiya ustuvorligi berishni so'rab berilgan talabnomaga (bundan buyon matnda konvensiya talabnomasi deb yuritiladi) talabnoma beruvchi tomonidan Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasiga a'zo bo'lgan davlatda berilgan birinchi talabnomaning nusxasi (bundan buyon matnda birinchi talabnoma deb yuritiladi), hamda bu talabnomaning o'zbek yoki rus tiliga tarjimai ilova etiladi, va ular konvensiya talabnomasi Patent idorasiga kelib tushgan sanadan uch oy muddatdan kechiktirilmay topshiriladi.

Birinchi talabnoma berilgan sanadan o'n ikki oy muddat o'tgach, lekin o'n ikki oy muddat o'tgandan so'ng ikki oylik muddatdan kechiktirmay kelib tushgan talabnoma bo'yicha, konvensiya ustuvorligi so'ralganda, talabnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

konvensiya ustuvorligini so'rash muddatini uzaytirish uchun belgilangan miqdorda patent boji to'langanligi to'g'risida hujjat;

talabnoma beruvchiga bog'liq bo'lmagan holda belgilangan o'n ikki oylik muddat ichida talabnoma topshirishga to'sqinlik qilgan vaziyatlar ko'rsatilgan va agar ular Patent idorasiga ma'lum deb o'ylashga asos bo'lmasa, bu vaziyatlar mavjudligini tasdiqlaydigan hujjat.

9. Konvensiya ustuvorligini belgilash to'g'risidagi iltimos, talabnoma topshirishda (patent berish to'g'risidagi arizaning tegishli grafasida keltiriladi) yoki talabnoma Patent idorasiga kelib tushgan sanadan boshlab ikki oy muddat ichida topshirilishi mumkin.

10. Ushbu Qoidalarning 5-bandida ko'rsatilgan o'zbek yoki rus tillarida tuzilgan talabnoma hujjatlari uch nusxada topshiriladi: 2 nusxasi qog'ozda, uchinchi elektron ko'rinishda mashinada o'qiladigan axborot tashuvchida (bundan buyon - MO'T) topshirilishi mumkin.

Aynan o'sha hujjatlarning o'zi agar ular o'zga tilda tuzilgan bo'lsa bir nusxada, o'zbek yoki rus tilidagi tarjimasi esa uch nusxada: 2 nusxasi qog'ozda, uchinchi elektron ko'rinishda mashinada o'qiladigan axborot tashuvchida topshirilishi mumkin.

Qog'ozdagi va MO'T dagi talabnoma hujjatlari va qo'shimcha materiallarning mazmuni aynan bir xil bo'lishi lozim. Qog'ozdagi va MO'T dagi materiallarning aynan bir xilligiga talabnoma beruvchi javobgardir.

Boshqa hujjatlar va agar ular o'zga tilda tuzilgan bo'lsa, ularning o'zbek yoki rus tilidagi tarjimasi bir nusxada taqdim etiladi.

11. Patent berish to'g'risidagi ariza, ushbu qoidaga keltirilgan 1-ilova shaklida topshiriladi. Agar qandaydir ma'lumotlarni tegishli grafalarda to'liq joylashtirishning iloji bo'lmasa, u holda arizaning tegishli grafasida: "davomini qo'shimcha varaqda qarang" deb ko'rsatilgan holda ular shu shakldagi qo'shimcha varaqda keltiriladi.

Xorijiy ism-familiyalar va korxonalarining nomlari o'zbek yoki rus tilidagi transliterasiyada ko'rsatiladi.

Talabnoma beruvchining nomi (imkoniyat bo'lgan holda), foydali modelning nomi arizada o'zbek va rus tillarida ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Talabnomaning boshqa hujjatlari o'zbek, rus yoki boshqa tilda topshiriladi.

Agar talabnoma hujjatlari o'zga tilda topshirilgan bo'lsa, talabnoma Patent idorasiga topshirilgan sanadan ikki oy muddat ichida taqdim etilishi lozim bo'lgan o'zbek yoki rus tiliga tarjimasi ilova qilinadi.

12. Arizaning "Ariza" so'zidan yuqorida joylashgan grafalari, Patent idorasiga kelib tushgandan keyin rekvizitlarni kiritish uchun mo'ljallangan bo'lib, talabnoma beruvchi tomonidan to'ldirilmaydi.

13. (71)-kod ostidagi "Talabnoma beruvchi" grafasida, talabnoma beruvchi (talabnoma beruvchilar) to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi: jismoniy shaxsning familiyasi, ismi (va otasining ismi), shuni ham nazarda tutish kerakki familiya ismdan avval ko'rsatiladi, yoki yuridik shaxsning rasmiy nomi (ta'sis hujjati bo'yicha), shuningdek tegishli uchun ularning turar joylari yoki manzillari, mamlakatning rasmiy nomi va to'liq pochta manzili va BIMTning ST.3 standarti bo'yicha mamlakat kodi (agar u o'rnatilgan bo'lsa) to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi. Agar talabnoma beruvchilar bir qancha bo'lsa, ko'rsatilgan ma'lumotlar ularning har biri uchun keltiriladi.

Foydali model mualliflari bo'lgan talabnoma beruvchilarning turar joylari to'g'risidagi ma'lumotlar ushbu grafada keltirilmaydi, balki faqat arizaning (72)-kod ostidagi "Muallif(lar)" grafasida bayon etiladi.

So'ngra shu grafaning o'zida talabnoma beruvchi foydali modelning muallifi, muallifning ish beruvchisi yoki muallifning yoxud muallif ish beruvchisining huquq vorisi ekanligi tegishli katakchada "X" belgisini qo'yish bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi korxonalarini, muassasalari uchun OKPO kodi ko'rsatiladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashovchi chet el yuridik shaxslari yoki jismoniy shaxslari uchun mamlakat (agar u belgilangan bo'lsa) kodi Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) ST.3 bo'yicha ko'rsatiladi.

14. Ustuvorlikni belgilash to'g'risidagi iltimosni o'z ichiga olgan grafa faqat sanasi talabnoma Patent idorasiga kelib tushgan sanadan bir muncha ilgari ustuvorlik so'ralayotgan bo'lsagina to'ldiriladi.

Bu holda tegishli katakchalarda "X" belgisini qo'yib chiqish bilan ustuvorlik so'rash uchun asoslar belgilanadi va quyidagilar: (31)-kod ostida ancha ilgariroq berilgan talabnomaning raqami, uning asosida yoki unga qo'shimcha materiallar asosida ustuvorlik so'raladi va so'ralayotgan ustuvorlik sanasi ((32)-kod ostida ancha ilgariroq berilgan talabnoma yoki u bo'yicha qo'shimcha materiallar kelib tushgan sana) ko'rsatiladi.

Konvensiya ustuvorligi so'ralayotganda, (33)-kod ostida BIMT ST.3 standarti bo'yicha birinchi talabnoma berilgan mamlakat kodi ko'rsatiladi.

15. (54)-kod ostidagi "Foydali model nomi" grafasida keltirilgan talabnoma berilgan foydali model(foydali modellar guruhi)ning nomi keltiriladi va u foydali model tavsifida keltirilgan nomga to'g'ri kelishi kerak.

16. (98)-kod ostidagi "Yozishmalar uchun manzil" grafasida pochta orqali tezda yetkazib berishning odatdagi talablarini qondiradigan yozishmalar uchun manzil, xat oluvchining ismi-sharifi yoki nomi, va telefon, teleks, faks raqamlari, e-mail (agar ular bo'lsa) keltiriladi.

Yozishmalar uchun manzil sifatida O'zbekiston Respublikasida yashovchi talabnoma beruvchi (talabnoma beruvchilardan biri) - jismoniy shaxsning turar joyi manzili, yoki O'zbekiston Respublikasidagi talabnoma beruvchi - yuridik shaxsning joylashgan joyi manzili, yoki Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilgan patent vakilining manzili, yoki O'zbekiston Respublikasi hududidagi boshqa bir manzil ko'rsatilishi mumkin.

Arizada yozishmalar uchun manzil ko'rsatilmaganda ushbu manzil sifatida agar tayinlangan bo'lsa patent vakili yoki boshqa ishonchli shaxsning joylashgan manzili

hisoblanadi, aks holda - O'zbekiston Respublikasi hududida manzilga ega bo'lsa, arizaning talabnoma beruvchi to'g'risidagi ma'lumotlarga taalluqli grafalarida talabnoma beruvchining (talabnoma beruvchilar bir qancha bo'lsa ularning birinчисini) manzili hisoblanadi.

17. (74)-kod ostidagi "Patent vakili" grafasi talabnoma beruvchi tomonidan talabnoma berilganga qadar patent vakili tayinlangan hollardagina to'ldiriladi va uning to'g'risida quyidagi ma'lumotlar: familiyasi, ismi (va otasining ismi), Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilgan raqami, O'zbekiston Respublikasidagi turar joyi adresi, telefon, faks raqamlari, , e-mail (agar ular bo'lsa) keltiriladi. Bundan tashqari, tegishli katakchaga "X" belgisini qo'yish orqali talabnoma beruvchi tomonidan berilgan va patent vakilining vakolatini tasdiqlaydigan ishonchnomaning mavjudligi qayd etiladi.

18. "Ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxati" grafasi, ilova qilinadigan hujjatlarning har bir nusxasidagi tegishli katakchalarda "X" belgisini qo'yib chiqish orqali va nusxalar hamda varaqlar soni ko'rsatilgan holda to'ldiriladi.

Turi ariza formasida ko'zda tutilmagan (boshqa hujjat) ilova qilinadigan hujjatlar uchun ularning vazifasi aniq ko'rsatiladi.

19. (72)-kod ostidagi "Mualliflar" va "To'liq uy manzili" grafalarda foydali modelning muallifi (mualliflari) to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi: familiyasi, ismi (otasining ismi), mamlakat nomi va uning BIMT ST.3 standarti bo'yicha kodini ichiga olgan holda to'liq turar joyi pochta manzili.

20. "Mualliflar" va "To'liq uy manzili" grafalari ostida bevosita joylashgan grafa, faqat muallif (mualliflar) patent berish to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilishda uni (ularni) bunday sifatda eslatib o'tmaslikni so'raganida to'ldiriladi. Bu holda e'lon qilishda ko'rsatmaslikni istagan har bir muallifning familiyasi, ismi (otasining ismi) va ularning imzolari keltiriladi.

21. Arizaning oxirgi "Imzo" grafasini, imzo qo'yish sanasini ko'rsatgan holda to'ldirish barcha hollarda majburiydir.



Ariza talabnoma beruvchi tomonidan imzolanadi. Yuridik shaxs tomonidan ariza korxonaga, tashkilot rahbari yoki rahbar tomonidan vakil qilingan shaxs tomonidan uning lavozimi ko'rsatilgan holda imzolanadi. Imzo muhr bilan tasdiqlanadi.

Patent vakili yoki ishonchli shaxs orqali talabnoma berilganda, ariza talabnoma beruvchi yoki patent vakili yoxud ishonchli shaxs tomonidan imzolanadi.

Imzolar imzo qo'yuvchi shaxsning familiyasi va ismi-shariflari ko'rsatilgan holda ochib beriladi.

Imzo qo'yishni talab qiladigan u yoki bu ma'lumotlar qo'shimcha varaqda keltirilgan hollarda, u ham shunday taptibda imzolanadi.

Talabnoma beruvchi yoki patent vakilining yoxud ishonchli shaxsning imzosi har bir qo'shimcha varaqda keltirilishi majburiydir.

22. Foydali modelning tavsifi uni amalga oshirish uchun yetarli darajada to'liq ochib berishi lozim.

23. Tavsif foydali modelning nomini ko'rsatishdan boshlanadi (talabnoma berilgan foydali model XPK ning amaldagi tahriridagi qaysi rubrikaga mansubligi aniqlangan holda, bu rubrikaning indeksi nomidan avval keltiriladi) va quyidagi bo'limlarni ichiga oladi:

foydali model mansub bo'lgan texnika sohasi;

texnika taraqqiyoti darajasi;

foydali modelning mohiyati;

chizmalar figuralari va boshqa materiallar ro'yxatining qisqacha tavsifi, agar ular talabnomada bo'lsa;

foydali modelning amalga oshirish imkoniyatini tasdiqlovchi ma'lumotlar.

Tavsif bo'limini zarur ma'lumotlarga ega manbalarga (adabiyot manbaiga, ilgari berilgan talabnoma tavsifiga, muhofaza hujjati tavsifiga va h.k.larga) havola qilish yo'li bilan almashtirishga yo'l qo'yilmaydi.

24. Foydali modelning nomi aniq, qisqa, foydali modelning mohiyatiga mos bo'lishi, o'zi mansub bo'lgan obyekt turini belgilashi va obyekt vazifasini tavsiflashi (o'zi tomonidan bajariladigan vazifa yoki uning texnikaning u yoki bu sohasiga mansubligini ko'rsatishi) lozim.

Foydali modelning nomi, odatda, XPK ning ma'lum rubrikasiga mos bo'lishi lozim. Agar foydali model mohiyatiga mos keladigan rubrikani aniqlashning iloji bo'lmasa, foydali modelning nomi, hamma qabul qilgan tarmoqqa xos, umumiy-texnikaviy atamalarga muvofiq ko'rsatiladi.

Agar foydali model har xil sohalarda qo'llanilishi mumkin bo'lsa va nomi shunday imkoniyatni aks ettirgan bo'lsa, u holda bunday nomda, foydali modelning ko'proq qo'llaniladigan sohalaridan birini aniqlashga hamda "asosan", "afzalroq" so'zlarini ishlatishga yo'l qo'yiladi.

Qo'llanilishi mumkin bo'lgan sohalardan faqat birini ta'kidlovchi "masalan" va "xususan" so'zlari qo'llanilmaydi.

Foydali modelning nomi atamalarga xos yoki tavsifiy bo'lishi mumkin.

Atamalarga xos nom o'zi bilan mazmuni bir ma'noli tushunchadan iborat ekanini ko'rsatadi va u shu texnika sohasi mutaxassislariga, obyektning muhim belgilari majmui sanab o'tilgan va o'tilmaganidan qat'iy nazar, ma'lum ekanligini tavsiflab beradi.

Tavsifiy nom faqat obyektning vazifasi va uning tomonidan texnikaning bitta sohasida yoki har xil sohalarida bajariladigan vazifalar to'g'risida tushuncha beradi, lekin talabnoma berilayotgan foydali modelni tavsiflaydigan muhim belgilarining zarur majmui to'g'risida bir ma'noli fikr yuritish imkoniyatini bermaydi.

Nom birlikda bayon etiladi. Birlikda qollanilmaydigan nomlar bundan mustasno.

Biri ikkinchisini olish (tayyorlash), amalga oshirish yoki foydalanish uchun mo'ljallangan obyektlarga taalluqli bo'lgan foydali modellar guruhining nomi bir foydali modelning to'liq nomini va boshqasining qisqartirgan nomini ichiga oladi. Biri boshqasida foydalanishi uchun mo'ljallangan obyektlarga taalluqli bo'lgan foydali

modellar guruhining nomi guruhga kiruvchi foydali modellarning to'liq nomini ichiga oladi. Variantlarga taalluqli bo'lgan foydali modellar guruhining nomi qavs ichidagi "variantlar" so'zi bilan to'ldirilgan guruhdagi bitta foydali modelning nomini ichiga oladi.

Zarur hollarda foydali modelning nomi lotin alifbosi belgilari va arab raqamlarini ichiga olishi mumkin.

Boshqa alifbo belgilarini, maxsus belgilarni foydali model nomida qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

Foydali modelning nomida shaxsiy ismlar, betakalluf nomlar, abbreviaturalar, reklama, firma nomlari, tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomlari va jo'g'rofiy nomlar, "va boshqalar" so'zlari va foydali modelni identifikasiyalash maqsadlariga xizmat qilmaydigan boshqa shunga o'xshash so'zlar qo'llanilishi mumkin emas.

25. Tavsifning "Foydali model mansub bo'lgan texnika sohasi" bo'limida foydali modelning qo'llanilish sohasi ko'rsatiladi. Agar bunday sohalar bir nechta bo'lsa, ularning afzalrog'i ko'rsatiladi.

26. Tavsifning "Texnika darajasi" bo'limida, ariza beruvchiga ma'lum bo'lgan foydali model analoglari orasidan alomatlari majmui bo'yicha foydali modelga eng yaqini ajratilgan holda ma'lumotlar keltiriladi.

Foydali modelning analogi sifatida foydali modelning ustuvorlik sanasigacha ommaga oshkor bo'lgan ma'lumotlardan ma'lum bo'lgan va foydali modelning muhim alomatlari majmuiga o'xshash alomatlar majmui bilan tavsiflanadigan foydali model bajaradigan vazifani bajaradigan vosita ko'rsatiladi.

Analoglarning har birini tavsiflash paytida u ochib berilgan axborot manbalarining bibliografiya ma'lumotlari, analogning alomatlari talabnoma berilayotgan foydali modelning muhim belgilari bilan mos keladiganlari ajratib ko'rsatilgan holda keltiriladi, shuningdek ariza beruvchiga ma'lum bo'lgan, texnikaviy natija olishga to'sqinlik qiluvchi sabablar ko'rsatiladi.

Foydali modellar guruhini ta'riflash paytida, analoglar (shu jumladan eng yaqin analog) to'g'risidagi ma'lumotlar, har bir foydali model uchun alohida keltiriladi.

27. Tavsifning "Foydali modelning mohiyati" bo'limida foydali modelning mohiyati foydali model tomonidan ta'minlanadigan texnikaviy natijaga erishish uchun yetarlicha muhim alomatlar majmui bilan ifodalanadi.

Alomatlar agar erishiladigan texnikaviy natijaga ta'sir etsa, ya'ni ko'rsatilgan natija bilan sabab-oqibat bog'lanishida bo'lsa, muhim belgilarga kiritiladi.

Ushbu bo'limda talabnoma berilayotgan foydali model, hal qilishi lozim bo'lgan vazifa, foydali model amalga oshirilganda olinishi mumkin bo'lgan texnikaviy natijalar ko'rsatilgan holda batafsil ochib beriladi.

Foydali modelni tavsiflovchi barcha muhim alomatlar keltiriladi, eng yaqin analogdan farqlanadigan alomatlar ajratib ko'rsatiladi, shuning bilan birga, so'ralayotgan huquqiy muhofaza hajmi tatbiq etiladigan barcha hollarda texnikaviy natija olishni ta'minlovchi alomatlar majmui, va foydali modelni faqatgina xususiy hollarda, bajarishning konkret shakllarida yoki undan maxsus foydalanish sharoitlarida tavsiflaydigan alomatlar ko'rsatiladi.

Alomat ta'rifini ushbu alomat ochib berilgan axborot manbaiga havola qilish bilan almashtirish mumkin emas.

Texnikaviy natija, foydali modelni gavdalantirgan vositani amalga oshirish (tayyorlash) yoki undan foydalanishda olinishi mumkin bo'lgan texnikaviy samara, xususiyat, hodisa va boshqalarni o'zi bilan ifodalaydi.

Agar foydali model bir necha texnikaviy natijalar olishni (shu jumladan, uni konkret shakllarda bajarishda yoki undan mahsus sharoitlarda foydalanishda) ta'minlasa, ularni ko'rsatish tavsiya etiladi.

Texnikaviy natija, xususan, ishqalanish koeffisientini pasaytirishda (oshirishda); qisilib qolishining oldini olishda; vibrasiyani pasaytirishda; quyma mahsulotlarining strukturasiidagi defektlarni kamaytirishda; ishchi opganning muhit bilan kontaktini

yaxshilashda; signal formasi buzilishini kamaytirishda; suyuqlik sizib o'tishini kamaytirishda; yorilib ketishni oldini olishda ifodalanishi mumkin.

Agar foydali modelni yaratishda ma'lum vazifali vositalarning arsenalinigina kengaytirish yoki bunday vositalarni birinchi mapta olish masalasi yechilayotgan bo'lsa, texnikaviy natija vazifani amalga oshirishdan iborat bo'lishi mumkin va bu to'g'rida maxsus ko'rsatma berish talab etilmaydi.

Foydali modellar guruhi uchun ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlar, shu jumladan texnikaviy natijalar to'g'risidagi ma'lumotlar ham, har bir foydali model uchun alohida keltiriladi.

28. Foydali modellarni tavsiflash uchun, xususan, quyidagi alomatlardan foydalaniladi:

konstruktiv element (elementlar) mavjudligi;

elementlar orasidagi bog'liqlikning mavjudligi;

elementlarning o'zapo joylashishi;

element (elementlar) yoki butun qurilmaning yasash shakli, xususan, geometrik shakli;

elementlar orasidagi bog'lanishlarning bajarilish shakli;

element (elementlar)ning parametrlari va boshqa tavsiflari va ularning o'zapo bog'lanishlari;

element (elementlar) yoki butun qurilma qanday materialdan tayyorlanganligi;

element vazifasini bajaruvchi muhit.

Foydali modelni ta'riflash uchun foydali modelda yoki uning biror elementida foydali modelni ishlashi yoki vazifasini bajarishi uchun ta'sir etmaydigan (so'zli, tasviriy yoki aralash) alomatlardan foydalanish mumkin emas.

29. Avvaldan ma'lum bo'lgan qurilmani yangi vazifada qo'llanilishini tavsiflash uchun qo'llaniladigan obyektning identifikasiyalashga yetarli bo'lgan qisqacha tavsifi va ushbu yangi vazifani ko'rsatib o'tilishidan foydalaniladi.

30. Tavsifning "Figuralar ro'yxati" bo'limida figuralar ro'yxatidan tashqari ularning har birida nima tasvirlangani to'g'risida ham qisqacha ko'rsatma keltiriladi.

Agar foydali model mohiyatini tushuntiradigan boshqa materiallar taqdim etilgan bo'lsa, ularning mazmuni qisqacha keltirib o'tiladi.

31. Tavsifning "Foydali modelni amalga oshirish mumkinligini tasdiqlovchi ma'lumotlar" bo'limida foydali modelning talabnoma beruvchi tomonidan ko'rsatilgan vazifasini bajargan holda amalga oshirish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

Mohiyati umumiy tushunchalar bilan belgilanadigan alomatlardan foydalanib tavsiflangan foydali modelni amalga oshirish imkoniyati, xususan, funksional umumlashtirish darajasida taqdim etilgani, yoki talabnoma materiallarida bunday alomatni amalga oshirish yoki uni olish usullarini bevosita ta'riflash bilan yohud bunday vositalar yoki uni olish usuli hammaga ma'lumligi ko'rsatilgan holda tasdiqlanadi.

Tavsifning ushbu bo'limida shuningdek, foydali modelni amalga oshirishda yechiladigan masalani tavsiflash paytida "Foydali modelning mohiyati" bo'limida ko'rsatilgan texnikaviy natijani olish imkoniyatini tasdiqlovchi ma'lumotlar ham keltiriladi. Foydali modelni tavsiflash uchun qiymatlar intervali shaklida ifodalanadigan miqdoriy belgilardan foydalanilganda, bu intervalda texnikaviy natija olish imkoniyati ko'rsatib beriladi.

32. Foydali model uchun uning konstruksiyasining (statik holatdagi) ta'rifi chizmalar figuralariga havola qilingan holda keltiriladi. Ta'rifda eslatib o'tilgan raqamli belgilar, chizmaning figurasidagi tegishli elementlar raqamli belgilari bilan bir-biriga to'g'ri kelishi va ular eslatilib o'tilishi davomida birdan boshlab o'sib borish tartibida keltirilishi kerak.

Foydali modelning konstruksiyasi ta'riflanib bo'lgandan so'ng, uning harakati (ishi) yoki undan foydalanish usuli konstruktiv elementlarning raqamli belgilariga va

chizmalar figuralariga havola qilingan holda, zarur bo'lgan hollarda esa - boshqa tushuntiruvchi materiallar (epyuralar, vaqt bo'yicha diagrammalar va h.k.) bilan ta'riflanadi.

Agar foydali model funksional darajada tavsiflangan elementga ega bo'lsa va ta'riflangan amalga oshirish shakli dasturlashtiriladigan (rostlanadigan) ko'p funksiyali vositani qo'llashni nazarda tutsa, u holda shu foydali model tarkibida unga belgilangan konkret funksiyani shunday vosita bilan bajarish imkoniyatini tasdiqlovchi ma'lumotlar taqdim etiladi. Agar, bunday ma'lumotlar ichida algoritm, xususan, hisoblash algoritmi keltirilgan holda, uni blok-sxema shaklida, agar iloji bo'lsa, tegishli matematik ifoda shaklida keltirish afzalroqdir.

33. Qurilmani yangi vazifada qo'llanilishiga taalluqli foydali model uchun uning tomonidan ushbu vazifani amalga oshirish imkoniyatini tasdiqlovchi ma'lumotlar keltiriladi.

34. Foydali modelning formulasi, patent orqali beriladigan huquqiy muhofaza hajmini belgilash uchun mo'ljallangan.

35. Foydali modelning formulasi tavsifga va chizmalarga to'liq asoslangan bo'lishi, ya'ni foydali modelni uning tavsifida mavjud bo'lgan va chizmalarda ko'rsatilgan tushunchalar bilan ta'riflab berishi lozim.

36. Foydali modelning formulasi foydali modelning mohiyatini ifodalashi, ya'ni talabnoma beruvchi tomonidan ko'rsatilgan texnikaviy natijaga erishish uchun yetarli bo'lgan foydali modelning muhim alomatlari majmuini ichiga olishi lozim.

37. Foydali modelning alomatlari foydali model formulasida shunday ifoda etilishi lozimki, ularni aynanlashtirish, ya'ni ma'lum bo'lgan texnika taraqqiyoti darajasi asosida ularning ma'nosi va mazmuni mutaxassislar tomonidan bir xil ma'noda tushunilishi imkoniyatini ta'minlasin.

38. Foydali model formulasidagi alomat ta'rifini ushbu alomat ochib berilgan axborot manbaiga havola qilish bilan almashtirilishi mumkin emas. Alomatni tavsifga yoki chizmalarga havola qilmasdan ta'riflashning iloji bo'lmasa, ushbu Qoidalarning

37-bandi talablarini buzmaganda holda alomat ta'rifini bunday havola qilish bilan almashtirilishi mumkin.

39. Agar, umumiy tushunchadagi ta'riflar boshqa alomatlar bilan birgalikda talabnoma beruvchi tomonidan ko'rsatilgan texnikaviy natijani olishni ta'minlash, foydali modelning alomati uni turli xususiy hollarda amalga oshirish shakllarini o'z ichiga olgan umumiy (vazifasi, xususiyati va hokozolarni ifodalaydigan) tushunchalar bilan ifodalanishi mumkin.

Alomat muqobil ko'rinishida ifodalanishi mumkin, bunda bunday alomat muqobil tomonidan ko'rsatib o'tilgan istalgan holatda foydali modelning boshqa alomatlari bilan birgalikda aynan birdan-bir texnikaviy natijani olishni ta'minlashi lozim.

40. Foydali modelning formulasi bir zvenoli va ko'p zvenoli bo'lishi hamda tegishli bir yoki bir necha bandlarni o'z ichiga olishi mumkin.

41. Foydali modelning bir zvenoli formulasi foydali modelning tayyorlanishi yoki undan foydalanishning xususiy hollarida rivojlantirishlar va aniqlashtirishlarga ega bo'lmagan muhim alomatlar majmui bilan bitta foydali modelni tavsiflash uchun qo'llaniladi.

42. Ko'p zvenoli formula foydali modelning tayyorlanishi yoki undan foydalanishning xususiy hollarida rivojlantirishlar va aniqlashtirishlarga ega bo'lgan muhim alomatlar majmui bilan bitta foydali modelni yoki foydali modellar guruhini tavsiflash uchun qo'llaniladi.

Bitta foydali modelni tavsiflovchi ko'p zvenoli formula bir mustaqil bandga va undan keyin keluvchi unga bog'liq band (bandlar)ga ega.

Foydali modellar guruhini tavsiflovchi ko'p zvenoli formula bir necha mustaqil bandlarga ega bo'lib, ulardan har biri guruhning foydali modellaridan birini tavsiflaydi. Shuning bilan birga guruhning har bir foydali modeli tegishli mustaqil bandga bo'ysunuvchi bog'liq bandlarni jalb etish bilan tavsiflangan bo'lishi mumkin.

Ko'p zvenoli formula bandlari birdan boshlab ularni bayon etish tartibida ketma-ket arab raqamlari bilan raqamlanadi.



43. Foydali modellar guruhini tavsiflovchi formulani bayon etishda quyidagi qoidalarga amal qilinadi:

- alohida foydali modellarni tavsiflovchi mustaqil bandlarda odatda formulaning boshqa bandlariga havola qilinmaydi (ushbu mustaqil bandni unda boshqa bandning mazmunini butunlay takrorlamasdan bayon etishga imkon bersagina, bunday havola qilishga yo'l qo'yiladi);

- bog'liq bandlar o'zlari bo'ysungan mustaqil bandlar bilan birga, shu jumladan guruhdagi har xil foydali modellarni ta'riflash uchun bir xil mazmundagi bog'liq bandlar jalb qilingan holda ham guruhlarga birlashtiriladi.

44. Formulaning bandi odatda, eng yaqin analogning alomatlari bilan mos keluvchi, shu jumladan foydali modelning vazifasini ko'rsatuvchi umumlashtiruvchi tushunchani o'z ichiga oladigan muhim alomatlarga ega bo'lgan cheklovchi qismdan va foydali modelni eng yaqin analogidan fapqlaydigan muhim alomatlarni o'z ichiga oladigan farqlovchi qismdan iborat.

Formula bandini cheklovchi va farqlovchi qismlarga bo'lib tuzilganda cheklovchi qismi bayon etib bo'lingandan so'ng "shu bilan farqlanadiki" so'z birikmasi kiritiladi, bundan keyin bevosita fapqlovchi qism bayon etiladi.

45. Formulaning bandi, xususan, avvaldan ma'lum bo'lgan qurilmani yangi vazifada qo'llanilayotgan, analoglarga ega bo'lmagan foydali modelni tavsiflayotgan bo'lsa, cheklovchi va fapqlovchi qismlarga bo'linmay tuziladi.

46. Formulaning bandi bitta gap ko'rinishida bayon etiladi.

47. Foydali model formulasining mustaqil bandi faqat bir modelga taalluqli bo'lishi va bitta gap ko'rinishida bayon etilishi lozim. Bir qancha foydali modellar-variantlarni, agar ular muqobil ko'rinishda ifodalangan faqat bunday alomatlar bilan farqlansa, formulaning bir mustaqil bandida tavsiflashga yo'l qo'yiladi.

Agar formulaning mustaqil bandida muqobil ko'rinishda faqat funksional mustaqil bo'lmagan (ya'ni qurilmaning bo'g'ini yoki detali bo'lmagan) alomatlar

ifodalangan bo'lsa, bunday mustaqil band faqat bitta foydali modelga taalluqli deb hisoblanadi.

48. Agar formulaning mustaqil bandidagi mavjud alomatlar majmui har xil turdagi obyektlarga yoki har biri o'z vazifasiga ega bo'lgan vositalar majmuiga taalluqli foydali modellarning ta'rifini umumiy vazifadagi ko'rsatilgan vositalar majmuini amalga oshirmagan holda o'z ichiga olsa, formulaning mustaqil bandi bir foydali modelga taalluqli deb e'tirof etilmaydi.

49. Foydali model formulasining bog'liq bandi mustaqil bandda foydali modelni faqat uni bajarish yoki foydalanishning xususiy hollarida tavsiflaydigan alomatlar bilan keltirilgan foydali model alomatlarining majmuini pivojlantirish va/yoki aniqlashtirishni o'z ichiga oladi.

50. Formula bog'liq bandining cheklovchi qismi foydali modelning vazifasini aks ettiruvchi, odatda, mustaqil bandda keltirilganiga nisbatan qisqartirigan holda keltirilgan umumlashtirish tushuncha va ushbu bog'liq band mansub bo'lgan mustaqil band va/yoki bog'liq band (bandlarga) havola qilinishdan iborat. Bog'liq band formulaning bir necha bandlariga bo'ysungan hollarda, ularga havola qilish muqobillardan foydalanilgan holda ko'rsatiladi. Sungra foydali modelning bajarilishi yoki foydalanishining xususiy hollarida ta'riflaydigan alomatlar keltiriladi.

Agar foydali modelni tavsiflash uchun uning bajarilishi yoki foydalanishining xususiy hollarida bog'liq bandning alomatlari bilan bir qatopda mustaqil bandning alomatlarigina zarur bo'lsa, u holda bu bog'liq bandning mustaqil bandga bo'ysunishidan foydalaniladi. Agar ko'rsatib o'tilgan ta'riflash uchun formulaning bir yoki boshqa bir necha bog'liq bandlarining alomatlari zarur bo'lsa, u holda shu bog'liq bandning mustaqil bandga tegishli bog'liq bandlari orqali bo'ysunishidan foydalaniladi. Bunda ushbu bog'liq bandda o'zi bevosita bo'ysungan bog'liq bandga havola qilish keltiriladi.

51. Foydali modelning bog'liq bandini formulaning o'zi bo'ysungan o'sha bandning alomatlarini almashtiradigan yoki chiqarib tashlaydigan holda bayon etish mumkin emas.

Agar foydali model formulasining bog'liq bandi mustaqil bandning alomatlari almashtirilgan yoki chiqarib tashlangan holda ifodalangan bo'lsa, ushbu bog'liq band o'zi bo'ysungan mustaqil band bilan birga bitta foydali modelni ta'riflaydi deb e'tirof etilishi mumkin emas.

52. Formulada qurilmaning alomatlari uni statik holatda ta'riflaydigan holda bayon etilishi kerak. Qurilma konstruktiv elementining bajarilishini ta'riflash paytida uning harakatchanligini, ma'lum vazifalarni bajarish imkoniyatlarini (masalan, aylanish imkoniyati bilan, siljish imkoniyati bilan) va hokazolarni ko'rsatishga yo'l qo'yiladi.

Formulada ko'rsatib o'tilgan va ekvivalent konstruktiv elementlarni ifodalaydigan belgilar ularga tegishli bo'lgan ularga havola qilinadigan izohli ko'rsatmalar bilan birga beriladi. Izohli ko'rsatmalardan foydalangan holda, ular qavs ichiga olinishi lozim. Izohli ko'rsatmalar so'ralayotgan huquqiy muhofaza hajmiga ta'sir etmaydi, faqat formulani to'liqroq va aniqroq tushunish maqsadida keltiriladi.

53. Foydali model obykti sifatida avvaldan ma'lum bo'lgan qurilmani yangi vazifada qo'llanilgan holatlarda quyidagi tuzilishdagi formuladan foydalaniladi: "...(avvaldan ma'lum bo'lgan qurilmaning nomi yoki tavsifi keltiriladi) (ko'rsatib o'tilgan qurilmaning yangi vazifasi keltiriladi) sifatida qo'llanilishi".

54. Foydali model mohiyatini tushuntiradigan materiallar grafik tasvirlar (chizmalar, sxemalar, grafiklap, epyupalap, rasmlar, ossilogpammalap va h.k.) va jadvallar ko'rinishida bajarilishi mumkin.

Tavsifni chizmalar yoki sxemalar bilan tasvirlashning iloji bo'lmagan holda rasmlar topshiriladi.

Fotosupatlar grafik tasvirlarga qo'shimcha sifatida topshirilishi mumkin.

Chizmalar, sxemalar, rasmlar alohida varaqlarda va har bir vapag'ining yuqorisidagi o'ng bupchakda foydali modelning nomi ko'rsatilgan holda taqdim etiladi.

55. Foydali modelning refepati foydali model to'g'risidagi axborotlapni berish maqsadlariga xizmat qiladi va foydali model tavsifi mazmunining qisqartirgan bayonidan iborat bo'lib, foydali model nomini, u mansub bo'lgan texnika sohasi,

va/yoki foydalanish sohasining tavsifini, va agar foydali model mohiyatining ta'rifi nomdan aniq pavshan bo'lmasa, erishiladigan texnikaviy natijani ko'rsatilgan holda foydali model mohiyatining tavsifini o'z ichiga oladi.

Refepatda foydali modelning mohiyati har bir mustaqil bandining muhim alomatlari saqlangan holda formulani epkin ta'riflash yo'li bilan tavsiflanadi.

Zarur bo'lgan hollarda referatga chizma kiritiladi. Refepatga kiritiladigan chizma alohida varaqda, shu jumladan, tavsifni tasvirlovchi chizma figuralarining biri bilan o'xshash bo'lgan hollarda ham, referat matni nusxalari soni nechta bo'lsa, shuncha topshiriladi.

Refepatga qo'shimcha ma'lumotlar, xususan formulada bog'liq bandlarning mavjudligi va soni, grafik tasvirlap, jadvallar ham kiritilishi mumkin.

Refepat matnining tavsiya etiladigan hajmi - 1000 bosma belgigacha.

### 3-§. Yo'l qo'yib bo'lmaydigan elementlar

56. Talabnomada ahloq-odob va ijtimoiy taptibga zid ibopalar, chizmalar, rasmlar, fotosupatlar va boshqa materiallar; boshqa shaxslarning mahsulotlari yoki texnologik japyonlariga, shuningdek talabnomalari va muhofaza hujjatlariga nisbatan bayon qilingan iltifotsiz fikrlap; foydali modelga ochiqdan-ochiq taalluqli bo'lmagan yoxud talabnoma hujjatlarini ushbu Qoidalarning talablariga muvofiq deb e'tirof etish uchun zarur bo'lmagan ma'lumotlar va fikrlap bo'lmasligi lozim. "Texnika darajasi" bo'limida ma'lum qurilmalarning kamchiligini oddiy tapzda ko'rsatish yo'l qo'yib bo'lmaydigan element deb hisoblanmaydi.

### 4-§. Atamalar va belgilar

57. Foydali modelning formulasida, tavsifida va uni tushuntipib beruvchi materiallarda, shuningdek referatda standartlashtirilgan atamalar va qisqartmalar,

ular mavjud bo'lmagan hollarda esa ilmiy va texnikaviy adabiyotda hamma qabul qilgan atamalar va qisqartmalar qo'llaniladi.

Adabiyotda keng qo'llanilmaydigan atama va qisqartmalar ishlatilganda, ularning ma'nosi matnda birinchi marta qo'llanilganda tushuntirib beriladi.

Ilmiy-texnika adabiyotlarida ilmiy deb hisoblanmaydigan tushunchalarni ta'riflovchi atamalarni qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Hamma shartli belgilar passhifovka qilinadi. Tavsifda va formulada yagona atamalarga rioya qilinadi, ya'ni birdan-bir belgilar tavsifning matnida va formulada bir xil ataladi. Atamaning yagonalik talabi, shuningdek fizikaviy birliklap va foydalaniladigan shartli belgilarga ham taalluqlidir.

Fizikaviy kattaliklap amaldagi SI Xalqaro birliklap sistemasi birliklari bilan ifoda etiladi.

#### 5-§. Talabnoma hujjatlarini rasmiylashtirish

58. Hamma hujjatlar zarur bo'lgan hollarda ularni bevosita reproduksiya qilinib, cheklanmagan miqdorda nusxa ko'chirish imkoniyati bo'lgan tarzda rasmiylashtiriladi.

Har bir varaqning faqat bir tomonidan, qatoplapni varaqning kichik tomoniga papallel joylashtirilgan holda foydalaniladi.

59. Talabnomaning hujjatlari pishiq, oq, tekis, yapqipamaydigan qog'ozda bajariladi. Talabnoma hujjatlarini MO'T da ham berish mumkin.

60. Talabnomaning har bir hujjati alohida varaqdan boshlanadi. Varaqalar 210x297 mm formatga ega bo'ladi. Tavsif, formula, chizma va referatlarni o'z ichiga olgan varaqning hoshiyasi quyidagicha bajariladi, mm:

yuqoridagi - 20;

o'ngdagi - 20;

quyidagi - 20;

chapdagi - 25.

Chizmalar chizilgan varaqlardagi foydalaniladigan sathning o'lchami 170-262 mm dan oshmasligi lozim, hoshiyalapning o'lchami quyidagilardan kam bo'lmasligi kerak, (mm):

yuqoridagi - 25;

chapdagi - 25;

o'ngdagi - 15;

pastki - 10.

Bu varaqda foydalanilgan yoki foydalanishga yapoqli sath atpofida ramka chizilmasligi lozim.

Tasvirlar formati shunday tanlanadiki, bunda talabnoma hujjatlari varaqlarining belgilangan o'lchamlaridan oshmasligi kerak. Kichik formatdagi tasvirlar (fotosuratlar) qog'oz varaqlariga yopishtirilgan holda, varaq formati va sifatiga qo'yilgan talablarga rioya qilingan holda taqdim etiladi.

61. Talabnoma har bir hujjatining varaqlari birdan boshlab alohida raqamlab chiqiladi. Varaqlarning raqamlari ikkinchi varaqdan boshlab arab raqamlari bilan qo'yiladi.

Foydali model formulasi va tavsifining har beshinchi qatopini raqamlab chiqish tavsiya etiladi. Raqamlar belgilanayotgan qatorning char tarafiga arab raqamlari bilan qo'yiladi.

62. Hujjatlar qopa pangli shpift bilan bosmadan chiqapiladi. Tavsif, formula va referatning matnlari 1,5 intepval orqali bosh harflarining balandligi 2,1 mm dan kam bo'lmagan holda bosmadan chiqapiladi.

Grafik simvollar, lotincha nomlar, lotincha va yunoncha harflar, matematik ifodalar (formulalar) yoki simvollar siyoh, qora rangli pasta yoki tush bilan keyin yozib

qo'yilishi mumkin. Formulalarni bosma holda va qo'l bilan aralash holda yozishga ruxsat etilmaydi.

MO'T da beriladigan materiallarga ko'yilgan talablar Patent idorasi tomonidan belgilanadi.

63. Foydali modelning tavsifida, formulasida va referatida matematik ifodalar (formulalar) va simvollar ishlatilishi mumkin.

Matematik formulalardagi mavjud hamma harfiy belgilar ochib beriladi. Formulalarga beriladigan tushuntirishlarni ustun shaklida yozish lozim hamda har bir qatordan so'ng vergul bilan nuqta qo'yish lozim. Bunda harfiy ifodalarning rasshifrovkasi, formulada qo'llanilgan tartib bo'yicha beriladi.

Matematik belgilar:  $>$ ,  $<$ ,  $=$  va boshqalar faqat matematik formulalarda qo'llaniladi, matnda ularni so'zlar bilan yozish lozim (katta, kichik, teng va h.k.).

Kattaliklar orasidagi intervallarni "...dan" va "...gacha" so'zlari bilan belgilash lozim.

Kattaliklarni foizlar bilan ifodalashda foiz (%) belgisi sondan so'ng qo'yiladi. Agar kattaliklar bir nechta bo'lsa, u holda foiz belgisi, ularni sanab o'tishdan oldin qo'yilib, qo'sh nuqta bilan ajratiladi.

Matematik formulalarda ko'chirish, faqat belgi bo'yicha amalga oshiriladi.

64. Grafik tasvirlar (chizmalar, sxemalar, grafiklar, rasmlar va h.k.) chizmachilik asboblari yordamida o'chirilmaydigan, qora, aniq chiziq lap va shtrix lap bilan tushlanmasdan va bo'yalmasdan bajariladi.

65. Tasvirlarning masshtabi va aniqligi reproduksiya qilish paytida o'lchamlar  $2/3$  gacha chiziq li kichraytirilganda, hamma detallarni farqlab aniqlash mumkin bo'ladigan tarzda tanlanadi.

66. Raqamlar va harflar qavslar, aylanalar yoki qo'shtirnoqlar ichiga olinmaydi. Raqamlar va harflarning balandligi 3,2 mmdan kam bo'lmagan holda tanlanadi.

Raqamli va harfli belgilar aniq qilib bajariladi, ularning chiziqlari qalinligi tasvir chiziklarining qalinligiga mos bo'lishi lozim.

67. Har bir grafik tasvir, bu tasvirning shaklidan (chizma, sxema, rasm va h.k.) va varaqlarning raqamlanishidan qat'iy nazar, tavsif matnida keltirilgan tartibga muvofiq arab raqamlari bilan figura sifatida raqamlanadi (fig.1, fig.2 va h.k.). Agar tavsif bitta figura bilan tushuntirilsa, u raqamlanmaydi.

68. Chizmaning bir vapag'ida bir necha figuralar joylashtirilishi mumkin, bunday hollarda ular bir-birlaridan aniq chegapalab qo'yiladi. Agar ikki va undan optiq varaqlarda joylashgan figuralar bitta figuraning bo'laklarini tashkil etsalap, har xil varaqlarda tasvirlangan figuralardan biroptasi tushipib qoldipilmay kompanovka qilinishi mumkin bo'lgan holda joylashtiriladi.

Alohida figuralar varaqda yoki varaqlarda varaqlar maksimal holda to'ldirilgan va varaqning uzun tomoni veptikal holatda joylashtirilganda, chizmalarni o'qish mumkin bo'lgan holda joylashtirilishi lozim.

69. Chizmalar texnikaga oid chizmalarni tayyorlash qoidalariga muvofiq bajariladi.

70. Chizmada to'g'ri bupchakli (optogonal) proyeksiyalardan (turli ko'pinishlap, qirqimlap va kesimlarda) foydalanish afzalroq hisoblanadi; shuningdek aksonometpik proyeksiyalardan ham foydalanish mumkin.

71. Qirqimlar izohli belgilar asosiy chiziqlarni bemalol o'qishga to'sqinlik qilmaydigan tarzda qiya shtrixli chiziq bilan bajariladi.

72. Chizmadagi har bir element hamma boshqa elementlarga nisbatan proporsional holda bajariladi, elementni aniq tasvirlash uchun proporsiyalapning bir-biridan farqlanishining zarur bo'lgan hollari bundan mustasno.

73. Chizmalar hech qanday yozuvlarsiz bajariladi, zarur so'zlar, masalan "suv", "bug", "ochiq", "yopiq", "A-A" (qirqimni ko'rsatish uchun) va h.k. bundan mustasno.

74. Chizmalarda o'lchamlap ko'rsatilmaydi, zarur bo'lgan hollarda ular tavsifda keltiriladi.



75. Grafik tasvirlapning elementlari foydali modelning ta'rifiga muvofiq holda arab raqamlari bilan belgilanadi.

Bir necha figuralarda keltirilgan bir xil elementlar, bir xil raqamlar bilan belgilanadi. Turli figuralarda keltirilgan turli elementlarni bir xil raqamlar bilan belgilash mumkin emas. Tavsifda ko'rsatilmagan belgilar chizmaga qo'yilmaydi.

76. Agar grafik tasvir sxema shaklida keltirilsa, u holda uni bajarishda standartlashtirilgan shartli grafik belgilar qo'llaniladi.

Bir shakldagi sxemada, boshqa shakldagi sxemaning ayrim elementlarini (masalan, elektrik sxemada - kinematik va gidravlik sxemalar elementlarini) keltirish mumkin.

Agar sxema elementlarning grafik belgilari sifatida to'g'ri burchaklar shaklida keltirilgan bo'lsa, u holda raqamlar bilan belgilashdan tashqari to'g'ri burchakka bevosita elementning nomi ham yozib qo'yiladi. Agar elementning grafik tasvirlari o'lchami bunday qilishga yo'l qo'ymasa, elementning nomini chiqariladigan chiziqda ko'rsatish mumkin (zarur bo'lgan hollarda, sxemaning hoshiyasiga joylashtirilgan rasm ostidagi yozuv shaklida).

77. Rasm bevosita reproduksiya qilinib, cheklanmagan miqdorda nusxa ko'chirish imkoniyati bo'lgan tarzda aniq qilib bajarilishi lozim.

78. Chizmalar, sxemalar, rasmlar foydali model tavsifida va formulasida keltirilmaydi.

79. Axborot manbalarining bibliografiya ma'lumotlari ular bo'yicha axborot manbaini topish mumkin bo'lgan holda ko'rsatilishi lozim.

## **6-§. Talabnomani topshirish**

80. Foydali model muallifi, ish beruvchi yoki ularning huquqiy vorislari talabnoma topshirish va patent olish huquqiga ega.

81. Talabnoma bevosita Patent idorasiga topshiriladi yoki pochta orqali yuboriladi.

82. Talabnoma bevosita talabnoma beruvchi tomonidan yoki Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilgan patent vakillari yoxud boshqa vakil orqali topshirilishi mumkin.

83. Qonunning 35-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashaydigan jismoniy shaxslar yoki xorijiy yuridik shaxslar, agar O'zbekiston Respublikasi ishtirok etgan xalqaro shartnomada boshqacha qoidalar ko'zda tutilmagan bo'lsa, talabnoma berish va patent olish bilan bog'liq ishlarni Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilgan patent vakillari orqali olib boradilar.

## **II bob. Patent idorasi bilan patent olish bo'yicha ishlarni olib borish**

### **7-§. Vakil tayinlash**

84. Talabnoma bo'yicha ishlarni olib borish va talabnomani ko'rib chiqishda o'z manfaatlarini himoya qilish uchun talabnoma beruvchi ishonchnoma berish orqali vakil tayinlashi mumkin.

Patent idorasi oldida vakillik qilish uchun ishonchnoma O'zbekiston Respublikasida rasmiylashtiriladi va u oddiy yozma shaklda tuziladi.

Agar ishonchnoma o'zbek yoki rus tilidan boshqa tilda berilgan bo'lsa, unga tarjimasi ilova qilinadi.

Ishonchnoma talabnoma bilan bir vaqtda taqdim etiladi.

Agar ishonchnoma Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilgan bir necha patent vakili nomiga berilgan bo'lsa, u holda talabnoma bo'yicha patent olish ishlari ularning istalgani tomonidan olib borilaveradi.

## **8-§. Patent idorasi bilan yozishmalarni olib borish**

85. Yozishma talabnoma beruvchi yoki uning ushbu ishga vakolat berilgan vakili bilan har bir talabnoma bo'yicha alohida olib boriladi.

86. Talabnoma topshirilgandan keyin yuboriladigan materiallarda talabnoma raqami va talabnoma beruvchi yoki uning patent vakili yoxud ishonchli vakilining imzosi bo'lishi shart.

Talabnoma raqami ko'rsatilmagan materiallar, agar raqamni bilvosita aniqlash imkoni bo'lmasa, qaytarib yuboriladi.

87. Talabnoma bo'yicha ish yuritish jarayonida yuboriladigan materiallar Qonunda belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

89. Patent idorasiga talablarni buzib taqdim etilgan materiallar bo'yicha bildirishnoma yuborilgan sanadan boshlab uch oylik muddatda tuzatilgan va yetishmayotgan materiallarni taqdim etish taklif etilgan so'rovnoma yuboriladi. Talabnoma beruvchi yoki uning patent vakili yoxud ishonchli shaxsi bo'lmagan shaxslar tomonidan taqdim etilgan materiallar ko'rib chiqilmaydi. Bunday materiallarni topshirgan shaxsga tegishli bildirishnoma yuboriladi.

## **9-§. Talabnoma hujjatlariga tuzatishlar, aniqliklar va qo'shimchalar kiritish**

89. Qonunning 20-moddasiga ko'ra talabnoma beruvchi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran ikki oy mobaynida talabnomada ko'rsatilgan sanoat mulki obyektining mohiyatini o'zgartirmagan holda tuzatishlar, aniqliklar yoki qo'shimcha materiallar kiritish huquqiga ega.

90. Belgilangan miqdordagi patent boji to'langan taqdirda talabnoma bo'yicha tuzatishlar, aniqliklar yoki qo'shimcha materiallar ko'rsatilgan muddat o'tgandan keyin ham, lekin patent berish haqidagi qaror chiqarilgunga qadar tegishli ariza berish yo'li bilan kiritilishi mumkin.

Arizaga, talabnoma materiallariga o'zgartirishlar kiritish uchun patent boji to'langani haqidagi hujjat ilova qilinadi. Patent boji to'langani haqidagi hujjat taqdim etilmagan taqdirda yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilmaydi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi. To'langan patent bojining summasi belgilangan miqdordan kam bo'lganda talabnoma beruvchi Patent idorasi tomonidan yetishmayotgan patent bojini to'lash haqidagi bildirishnoma yuborilgan sanadan boshlab uch oy ichida kerakli summani to'lash huquqiga ega.

91. Talabnoma materiallariga tuzatishlar, aniqliklar va qo'shimchalar kiritish talabnoma beruvchi tomonidan tegishli yozma arizalar va almashtiriladigan varaqlarni topshirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ariza shakllari ushbu Qoidalarga berilgan 2,3,4-illovalarda keltirilgan.

Almashtiriladigan varaqlar talabnoma tegishli hujjatining har bir nusxasi uchun o'zbek yoki rus tilida taqdim etiladi. Talabnoma beruvchi ariza Patent idorasiga kelib tushganligi va uni ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilinadi.

92. Talabnoma beruvchi - yuridik shaxsning nomi yoki jismoniy shaxsning familiyasi (ismi, otasining ismi) o'zgartirilganda Patent idorasiga talabnoma beruvchining nomiga o'zgartirish kiritish haqida ariza beriladi va ushbu o'zgartirishlarni tasdiqlaydigan hujjat taqdim etiladi. Ariza shakli ushbu Qoidalarga berilgan 2-ilovada keltirilgan.

93. Talabnomaga bo'lgan huquq boshqa shaxsga o'tkazilgan holda Patent idorasiga talabnoma beruvchini o'zgartirish to'g'risidagi yozuvni kiritish haqida ariza beriladi. Ariza shakli ushbu Qoidalarga berilgan 3-ilovada keltirilgan.

Patent olishga bo'lgan huquqni boshqa shaxsga o'tkazilishida yoki talabnoma beruvchining nomi o'zgarishi natijasida talabnoma beruvchi haqidagi ko'rsatmani o'zgartirish foydali modelni tegishli davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazish sanasigacha amalga oshirilishi mumkin.

Arizada talabnomaga bo'lgan huquq boshqa shaxsga - huquq vorisiga o'tkazilishi haqida ko'rsatma, bu shaxs haqidagi ushbu Qoidalarning 13-bandida ko'zda tutilgan

ma'lumotlar keltirilishi lozim. Ariza talabnoma beruvchi va uning huquq vorisi tomonidan ushbu Qoidalarning 21-bandida ko'zda tutilgan tartibda imzolanadi.

Ariza faqat talabnoma beruvchi tomonidan imzolangan holda, unga talabnoma beruvchi va uning huquq vorisi tomonidan imzolangan huquq o'tkazilganligini tasdiqlaydigan hujjat ilova qilinadi. Ariza shakli ushbu Qoidalarga berilgan 3-ilovada keltirilgan.

94. Belgilangan talablar bajarilgan holda talabnoma beruvchi va uning huquq vorisi talabnoma materiallariga talabnoma beruvchi o'zgartirilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilganligi haqida xabardor qilinadi. Keyingi barcha yozishmalar yangi talabnoma beruvchi bilan olib boriladi.

Talabnomaga bo'lgan huquq o'tgan sana deb talabnoma beruvchi va uning huquqiy vorisiga talabnoma beruvchi o'zgartirilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilganligi haqidagi bildirishnoma yuborilgan sana hisoblanadi. Belgilangan talablar bajarilmagan holda talabnoma beruvchi va uning huquq vorisi taqdim etilgan hujjatlarni aniqlashtirish va/yoki tuzatish haqida yoki tegishli sabablarni ko'rsatgan holda talabnoma materiallariga talabnoma beruvchi o'zgartirilganligi to'g'risidagi yozuv kiritish mumkin emasligi haqida xabardor qilinadi.

95. Patent idorasi talabnoma hujjatlarida yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish haqidagi tegishli talabnoma raqami va tuzatilishi lozim bo'lgan xato ko'rsatilgan talabnoma beruvchi yoki uning patent vakili tomonidan imzolangan arizani qabul qiladi. Ariza shakli ushbu Qoidalarga berilgan 4-ilovada keltirilgan.

Talabnoma hujjatlarida yaqqol ayon bo'lgan va texnik xatolarni tuzatish foydali modelni tegishli davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazish sanasiga qadar amalga oshirilishi mumkin. Agar mutaxassis uchun umum e'tirof etilgan bilimlardan taklif etilgan tuzatishdan boshqa harakat ayon bo'lmasa, tuzatish yaqqol ayon deb hisoblanadi.

Agar tuzatishlar bibliografiya ma'lumotlarini ko'rsatishdagi xatoliklarga va boshqa shu kabi xatolarga oid bo'lib, hujjatni tuzatish bevosita nusxa olishda aniqlikka nisbatan salbiy oqibatlariga olib kelmasa, tuzatish kiritish zarurligi avvalgisini

o'rnini bosadigan varaqlarni taqdim etmasdan talabnoma beruvchining xatida bayon qilinishi mumkin.

96. Belgilangan talablar bajarilmagan holda, talabnoma beruvchi taqdim etilgan hujjatlarga aniqlar kiritish va/yoki tuzatish lozimligi haqida yoki tegishli sabablarni ko'rsatib, talabnoma materiallariga o'zgartirish kiritish mumkin emasligi haqida xabardor qilinadi.

97. Foydali model birligi talabi buzilgan holda topshirilgan talabnoma, talabnoma beruvchining iltimosiga ko'ra ikki yoki bir necha talabnomalarga ajratilishi mumkin (bundan buyon - ajratilgan alohida talabnoma).

98. Ajratilgan alohida talabnomalar bo'yicha birinchi talabnomaning topshirish sanasi va foydali model ustuvorligi, birinchi talabnoma bo'yicha bir muncha ilgariroq ustuvorlikni belgilash huquqi mavjud bo'lgan holda esa, ushbu ustuvorlik saqlab qolinadi.

99. Iltimosnoma bilan birga ushbu Qoidalarning 5-79-bandlariga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar va belgilangan miqdorda patent boji to'langani haqidagi hujjat yoki patent bojini to'lashdan ozod etish yoxud uning miqdorini kamaytirish uchun asoslarni tasdiqlaydigan hujjat taqdim etiladi.

#### **10-§. So'ralgan materiallarni taqdim etish muddatlarini uzaytirish**

100. Qonunning 20-moddasiga muvofiq belgilangan talablar buzilgan holda rasmiylashtirilgan talabnoma bo'yicha talabnoma beruvchiga yetishmagan yoki tuzatilgan materiallarni so'rovnoma jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida taqdim etish taklif qilingan so'rovnoma yuboriladi.

So'ralgan materiallarni talabnoma beruvchi tomonidan taqdim etish muddati belgilangan muddatni uzaytirish to'g'risida iltimosnoma berilgan holda, ammo 12 oydan ko'p bo'lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Iltimosnomaga muddatni uzaytirish uchun belgilangan miqdorda patent boji to'langanini tasdiqlaydigan hujjat ilova qilinadi. Agar bunday hujjat taqdim etilmagan bo'lsa, yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilmaydi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi.

101. Muddatni uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma so'rovnoma talabnoma beruvchiga yuborilgan sanadan boshlab uch oy ichida taqdim etiladi.

102. So'ralgan materiallarni taqdim etish muddati uzaytirilganligi haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi.

103. Iltimosnomani taqdim etish muddatiga rioya qilinmagan holda talabnoma beruvchining iltimosnomasi qanoatlantirilmaydi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi.

#### **11-§. O'tkazib yuborilgan muddatlarni tiklash**

104. Qonunning 20-moddasiga muvofiq talabnoma beruvchi tomonidan o'tkazib yuborilgan ekspertiza so'rovnomasi bo'yicha qo'shimcha materiallarni taqdim etish muddatlari tiklanishi mumkin.

105. O'tkazib yuborilgan muddatlarni tiklash to'g'risidagi iltimosnoma talabnoma beruvchi tomonidan taqdim etish muddati o'tkazib yuborilgan hujjat bilan birga muddat o'tkazib yuborilgan kundan e'tiboran o'n ikki oydan kechiktirmay muddat o'tkazilishiga sabab bo'lgan uzrli sabablar ko'rsatilgan holda beriladi. Patent idorasi ko'rsatilgan sabablar mavjudligini hujjatlar bilan tasdiqlashni so'rash huquqiga ega.

106. Iltimosnomaga belgilangan miqdorda tegishli patent boji to'langanini tasdiqlaydigan hujjat ilova qilinadi. Belgilangan miqdordagi patent boji to'langanligini tasdiqlaydigan hujjat ko'rsatilgan muddatda taqdim etilmagan holda yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilmaydi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi.

107. O'tkazib yuborilgan muddat tiklangani to'g'risida talabnoma beruvchiga xabar beriladi.

108. Agar yuqorida ko'rsatilgan talablarga rioya qilinmagan holda iltimosnoma qanoatlantirilmaydi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi.

#### **12-§. Talabnoma beruvchining talabnoma materiallari bilan tanishishi**

109. Talabnoma beruvchi (uning patent vakili yoki ishonchli shaxsi) o'zi topshirgan talabnoma va shu talabnoma bo'yicha Patent idorasi bilan olib borilgan yozishmalar bilan kuni va soatini avvaldan kelishib, bevosita Patent idorasida, va shuningdek talabnoma, ko'rsatilgan materiallar yoki ularning qismlari nusxasini so'rovnomada orqali olib tanishishi mumkin.

110. Huquqni muhofaza qilish organlari talabnoma materiallari bilan faqat tergov olib borish zaruriyati munosabati bilan tanishish huquqiga ega.

#### **13-§. Talabnomani talabnoma beruvchining ishtirokida ko'rib chiqish**

111. Talabnoma bilan bog'liq savollarni talabnoma beruvchining (uning patent vakili yoki ishonchli shaxsining) ishtirokida ko'rib chiqish Patent idorasining taklifi bo'yicha yoki talabnoma beruvchining iltimosiga ko'ra ikkala tomon bu savollar bilan tanishib chiqqanidan so'ng amalga oshiriladi.

112. Ekspertizaning savollari uchrashish maqsadga muvofiqligi ma'lum qilingan so'rovnomada, talabnoma beruvchining savollari esa, uchrashuv o'tkazish haqidagi iltimosnomada bayon qilinishi mumkin.

113. So'rovnomada berilgan holda talabnoma beruvchi talabnomani ko'rib chiqishda ishtirok etishidan qat'i nazar javob so'rovnomada jo'natilgan sanadan boshlab uch oylik muddatda talabnoma beruvchi tomonidan taqdim etiladi. Talabnomani ko'rib chiqish sanasi va vaqti oldindan kelishib olinadi.

Sharoit o'zgargan holda belgilangan vaqtda talabnomani ko'rib chiqishda ishtirok etish imkoniyati bo'lmagan tomon darhol bu haqida ikkinchi tomonni xabardor qiladi.



114. Bir o'zi talabnoma beruvchi bo'lmagan shaxs faqat vakillik qilish uchun ishonchnomasi bo'lgan taqdirda boshqa talabnoma beruvchilarsiz o'zi talabnomani ko'rib chiqishda ishtirok etishi mumkin.

115. Talabnomani talabnoma beruvchining ishtirokida ko'rib chiqish muzokara yo'li bilan yoki ekspert kengashida amalga oshiriladi.

Agar savollar bevosita ekspert va talabnoma beruvchi tomonidan hal qilingan holda muzokaralar, agar savollarni hal qilish uchun ekspertiza tomonidan bir necha mutaxassislar ishtirok etishi talab etilsa, ekspert kengashi o'tkaziladi.

Muzokaralar va ekspert kengashi natijalari bo'yicha belgilangan shaklda ikki nusxada ishtirokchilar haqidagi ma'lumotlarni, tomonlar tarafidan keltirilgan dalillar va takliflar va keyingi ish yuritish haqidagi xulosalarni ichiga olgan bayonnoma tuziladi.

Bayonnomada foydali model formulasining talabnoma beruvchi (uning patent vakili yoki ishonchli shaxsi) tomonidan taklif etilgan yangi tahriri, talabnomani chaqirib olish haqidagi ariza, ekspertizaning yozma tushuntirishlar talab qilgan savollari va hokazolar keltirilishi mumkin.

Bayonnoma ko'rib chiqishda qatnashgan barcha ishtirokchilar tomonidan imzolanadi. Bir nusxasi talabnoma materiallariga qo'shib qo'yiladi, ikkinchisi esa talabnoma beruvchiga (uning patent vakili yoki ishonchli shaxsiga) beriladi.

Muhokama qilingan savollar bo'yicha kelishuvga erishilmagan holda, bayonnomada ko'rib chiqishda qatnashganlarning alohida fikri qayd etilishi mumkin. Talabnoma beruvchiga beriladigan tegishli xulosalarni ichiga olgan bayonnoma nusxasi ish yuritishni to'xtatish haqidagi bildirishnomaning (talabnoma chaqirib olingan holda) yoki ekspertiza so'rovnomasining o'rnini bosishi mumkin, bu haqida tegishli yozuv qayd etib qo'yiladi.

116. Bayonnoma talabnoma beruvchining ekspertiza so'rovnomasiga javobining o'rnini (agar, bu holda javob berish uchun belgilangan muddatlar buzilmagan bo'lsa) bosishi mumkin. Bu holda bayonnomaga tegishli yozuv qayd etib qo'yiladi.

#### **14-§. Talabnoma beruvchi tomonidan talabnomani chaqirib olish**

117. Qonunning 20-moddasiga muvofiq talabnoma beruvchi talabnomani Davlat ekspertizasining istalgan bosqichida davlat ro'yxatidan o'tkazilgunga qadar chaqirib olish huquqiga ega. Chaqirib olish to'g'risidagi ariza qabul qilinganligi haqidagi bildirishnoma talabnoma beruvchiga jo'natilgan sanadan e'tiboran talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanadi.

Talabnomani ko'rib chiqish tugallangunga qadar chaqirib olingan holda, talabnoma bo'yicha ish yuritish to'xtatiladi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi. Talabnoma ko'rsatilgan muddatda talabnoma beruvchi tomonidan ixtiroga talabnomaga o'zgartirilgan holda, uni foydali modelga talabnoma sifatida ko'rib chiqish to'xtatiladi va shuningdek, bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi.

118. Chaqirib olingan va chaqirib olingan deb hisoblanadigan talabnoma yuridik oqibatlarga olib kelmaydi, ya'ni u bo'yicha hech qanday yuridik ahamiyatga molik amallar olib borilishi mumkin emas (bunday talabnoma bo'yicha ekspertiza o'tkazilmaydi, patent berilmaydi, ixtiroga talabnomaga o'zgartirilishi mumkin emas va x.k.) va kelgusida talabnoma beruvchining huquqlari ushbu talabnomaga asoslanishi mumkin emas (xususan, keyingi talabnomani topshirishda chaqirib olingan va chaqirib olingan deb hisoblanadigan talabnoma yoki unga qo'shimcha materiallar kelib tushgan sanasi bo'yicha ustuvorlik so'rash mumkin emas); boshqa talabnomalar bo'yicha ekspertiza o'tkazish jarayonida yangilikka tekshirilganda bunday talabnoma texnika taraqqiyoti darajasiga kiritilmaydi.

119. Talabnoma beruvchining talabnomani chaqirib olish to'g'risidagi arizasi ma'lumot uchun qabul qilingani haqidagi bildirishnoma jo'natilgandan keyin kelib tushgan ushbu arizani haqiqiy emas deb hisoblash to'g'risidagi iltimosi ushbu Qoidalarning 118-bandida ko'rsatilgan talabnomani chaqirib olish oqibatlarini bekor qilishga asos bo'lmaydi.

### **III bob. Talabnomani ko'rib chiqish**

15-§. Kelib tushgan talabnomani ro'yxatga olish

120. Patent idorasiga kelib tushgan talabnoma materiallari, agar kamida o'zbek yoki rus tilida patent berish to'g'risidagi ariza va belgilangan miqdorda patent boji to'langanini tasdiqlaydigan hujjatni yoki patent bojini to'lashdan ozod etish uchun yoxud uning miqdorini kamaytirish uchun asoslarni tasdiqlaydigan hujjatni ichiga olsa, ular kelib tushgan sanasi ko'rsatilgan holda foydali modelga talabnoma sifatida ro'yxatga olinadi.

121. Talabnomaga Patent idorasining ro'yxat raqami beriladi.

Talabnoma beruvchi talabnoma materiallari kelib tushganlik fakti haqida ro'yxat raqami va kelib tushgan sanasi ma'lum qilingan holda xabardor qilinadi.

122. Agar talabnoma hujjatlari o'zbek yoki rus tilidan boshqa tilda berilgan holda, talabnoma materiallarida rasmiy ekspertizani muddatdan ilgari boshlash haqidagi iltimosnoma bo'lsa, talabnoma beruvchi talabnoma hujjatlarining tarjimasi olinmagunga qadar rasmiy ekspertizani o'tkazish mumkin emasligi haqida xabardor qilinadi.

Ro'yxatdan o'tkazilgan talabnoma materiallari qaytarilmaydi.

123. Talabnoma materiallari Patent idorasiga kelib tushgandan patent berilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar rasmiy nashrda e'lon qilingunga qadar maxfiy (konfidensial) hisoblanadi va talabnoma beruvchining rozilgisiz ma'lum qilinishi mumkin emas.

#### 16-§. Rasmiy ekspertiza

124. Qonunning 20-moddasiga muvofiq Patent idorasi patent berish uchun talabnoma bo'yicha rasmiy ekspertiza va foydali modelga talabnoma ekspertizasidan iborat bo'lgan davlat ekspertizasini o'tkazadi.

125. Qonunning 21-moddasiga muvofiq talabnomaning rasmiy ekspertizasi u Patent idorasiga kelib tushgan sanasidan ikki oy o'tgandan so'ng o'tkaziladi.

126. Talabnoma beruvchining yozma iltimosnomasiga ko'ra rasmiy ekspertiza ko'rsatilgan muddat o'tmasdan boshlanishi mumkin. Bu holda talabnoma beruvchi iltimosnoma berilgan paytdan boshlab talabnoma materiallariga belgilangan miqdorda qo'shimcha patent boji to'lamasdan o'z tashabbusiga ko'ra tuzatishlar, aniqliklar va qo'shimchalar kiritish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Agar talabnoma beruvchi tomonidan ko'rsatilgan muddatda talabnoma ixtiroga talabnomaga o'zgartirilgan holda uni foydali modelga talabnoma sifatida ko'rish to'xtatiladi, va talabnoma beruvchi bu haqida xabardor qilinadi.

Talabnoma beruvchining iltimosnomasini berilmagan deb hisoblash haqidagi iltimosi kelib tushgan taqdirda (rasmiy ekspertizani ko'rsatilgan muddat o'tmasdan boshlash haqidagi iltimosnomani chaqirib olish) Qonunning 20-moddasi ikkinchi qismida ko'zda tutilgan talabnoma beruvchining patent boji to'lamasdan o'z tashabbusiga ko'ra tuzatishlar, aniqliklar va qo'shimchalar kiritish huquqi tiklanmaydi.

127. Rasmiy ekspertiza o'tkazish davomida quyidagilar tekshiriladi:

a) talabnoma tarkibida bo'lishi yoki unga ilova qilinishi lozim bo'lgan hujjatlarning mavjudligi;

b) foydali model mohiyatini tahlil qilmasdan turib aniqlanadigan belgilangan talablarga rioya qilinganligi;

v) Qonunning 14-moddasi to'rtinchi qismida ko'zda tutilgan hollarda talabnoma topshirish tartibiga, jumladan patent vakilining vakolatlarini tasdiqlaydigan ishonchnomaning mavjudligi va to'g'ri rasmiylashtirilishiga rioya qilinganligi;

g) talabnoma foydali model sifatida muhofazalanadigan obyektlarga oid taklifga berilganligi;

d) talabnoma bo'yicha Patent idorasiga kelib tushgan sanasidan avvalroq ustuvorlikni so'rash asoslanganligi;

e) foydali modelni XPKning amal qilayotgan tahriridagi tasniflanishi to'g'riligi (agar talabnoma beruvchi tomonidan tasniflanmagan bo'lsa tasniflanadi).

128. Ro'yxatga olingan talabnomada talabnomani topshirish uchun belgilangan miqdorda boj to'langanini tasdiqlaydigan hujjat mavjudligi tekshiriladi. Bunday hujjat yoki ko'rsatilgan patent bojini to'lashdan ozod qilish yoxud uning miqdorini kamaytirish uchun asoslar mavjudligini tasdiqlaydigan hujjat bo'lmagan taqdirda talabnoma beruvchiga tegishli hujjatni (hujjatlarni) talabnoma materiallari kelib tushgan sanadan yoki ekspertiza o'tkazish lozim bo'lgan obyektlar ko'rsatilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida (agar materiallar kelib tushgan sanagacha patent boji talabnomada keltirilgan obyektlarning hammasi uchun to'lanmagan bo'lsa) taqdim etish zarurligi haqida bildirishnoma yuboriladi.

129. Agar ariza topshirilganda, patent boji belgilangan miqdordan kam to'langan bo'lsa, talabnoma beruvchiga bildirishnoma jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida talabnomani topshirish uchun to'lagan patent bojini va formulaning mustaqil bandlari sonini muvofiqlashtirish haqida bildirishnoma yuboriladi. Talabnoma beruvchiga, shuningdek belgilangan miqdordagi patent bojini belgilangan muddatda to'langanini tasdiqlaydigan hujjat taqdim etilmagan taqdirda, bitta foydali modelga talabnoma materiallari topshirilmagan deb hisoblanishi, foydali modellar guruhiga talabnoma bo'yicha esa ekspertiza talabnoma beruvchi tomonidan tanlab olingan bandlar bo'yicha yoki agar u tanlagan bandlar haqida ko'rsatilgan muddatda xabar bermagan holda formulada birinchi bo'lib ko'rsatilgan bandlar bo'yicha o'tkazilishi haqida xabar beriladi.

Agar patent boji to'langanini tasdiqlaydigan hujjat taqdim etilmagan holda, talabnoma materiallarida rasmiy ekspertizani ko'rsatilgan muddat o'tmasdan boshlash haqidagi iltimosnoma bo'lsa, talabnoma beruvchi patent boji to'langanligiga oid hujjat olinmagunga qadar bu iltimosni qanoatlantirish mumkin emasligi haqida xabardor qilinadi.

Talabnoma beruvchiga patent bojini to'lash to'g'risidagi bildirishnoma talabnoma materiallarini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi bildirishnoma bilan bir vaqtda yuborilishi mumkin.

130. Agar rasmiy ekspertiza jarayonida talabnoma hujjatlari qo'yilgan talablarga rioya qilinmagan holda rasmiylashtirilgani aniqlansa, talabnoma beruvchiga

kamchiliklarni ko'rsatib, zarur huquqiy asoslarni keltirgan holda va yetishmagan yoki tuzatilgan hujjatlarni so'rovnoma jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida taqdim etish taklif etilgan so'rovnoma yuboriladi.

Quyidagilar so'rovnoma yuborish uchun asos bo'ladi:

a) talabnomada ushbu Qoidalarng 5-bandida ko'zda tutilgan hujjatlardan birortasi bo'lmasa;

b) talabnoma patent vakili yoxud ishonchli shaxs orqali topshirilganda ishonchnoma yo'qligi yoki uni rasmiylashtirish qoidalari buzilganligi;

v) talabnoma hujjatlari belgilangandan kam nusxada topshirilganda;

g) O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashovchi jismoniy shaxslar yoki xorijiy yuridik shaxslar tomonidan talabnoma Patent idorasida ro'yxatdan o'tkazilgan patent vakillari orqali topshirilmaganda, agar O'zbekiston Respublikasi ishtirok etgan xalqaro bitimlarda talabnomani bunday topshirish ko'zda tutilgan tartib o'rnatilmagan bo'lsa;

d) patent berish uchun arizada ushbu Qoidalarda ko'zda tutilgan rekvizitlar, imzolar, muhr (zarur bo'lganda) yo'qligi;

e) patent bojlari to'g'ri to'langanligi bilan bog'liq savollarni aniqlash zaruriyati;

j) talabnoma hujjatlarining o'zbek yoki rus tiliga tarjimasini yo'qligi, agar ular boshqa tilda topshirilgan bo'lsa;

z) hujjatlardan bevosita nusxa ko'chirishga, ularni saqlashga to'sqinlik qiladigan va/yoki patent tavsifini e'lon qilishga tayyorlash imkoniyatini bermaydigan kamchiliklar (varaqlar formatiga, hoshiyalarning o'lchamlariga va h.k.larga qo'yilgan talablar buzilganda, talabnoma materiallarini o'qishni qiyinlashtiradigan bosma sifati va h.k.) aniqlanganda;

i) foydali model tavsifida ushbu Qoidalarda ko'zda tutilgan biron-bir bo'limning yo'qligi (agar tegishli bo'limda bayon qilinishi lozim bo'lgan ma'lumotlar boshqa bo'limda keltirilgan bo'lsa so'rovnoma yuborilmaydi), va shuningdek foydali model

formulasida yoki tavsifida biron-bir alomat ta'rifini ushbu alomat ochib berilgan adabiyot manbaiga havola qilish bilan almashtirish;

k) talabnomada hamma tanisha olmaydigan adabiyot manbaiga berilgan izohlar yoki undagi ba'zi ma'lumotlarni (patent berilishi to'g'risida ma'lumotlarni e'lon qilishda muallifligi ko'rsatilishini istamagan mualliflar to'g'risidagi ma'lumotlar bundan mustasno) e'lon qilish mumkin emasligi haqida ko'rsatmalar mavjud bo'lgan holda;

l) formula bandini bitta gap ko'rinishida bayon qilish talablari buzilgan holda;

m) foydali model formulasida tegishli obyekt belgilari o'rniga uning ishlatishdagi ko'rsatkichlari va iste'mol xususiyatlari, uni amalga oshirish va/yoki undan foydalanishda kelib chiqadigan effekt va hodisalar haqida ma'lumotlar mavjudligi;

n) talabnoma hujjatlarining bir-biriga mos emasligi (arizada keltirilgan foydali model nomi tavsifda va formulada keltirilgan nomiga mos emasligi; chizmalar foydali model tavsifiga mos emasligi va h.k.).

o) talabnomada avvalroq ustuvorlik so'rash bilan bog'liq savollarni aniqlash zaruriyati.

131. Agar talabnoma beruvchi belgilangan muddatda so'ralgan materiallarni yoki ularni topshirish muddatlarini uzaytirish haqidagi iltimosnomani ushbu Qoidalarning 10-§ida ko'zda tutilgan shartlarga rioya qilingan holda taqdim etmasa, talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanadi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi. Talabnoma bo'yicha ish yuritish to'xtatiladi.

132. O'tkazib yuborilgan muddat Patent idorasi tomonidan tiklangan holda ish yuritish davom ettirilishi mumkin.

133. Talabnoma mohiyatini biron-bir texnika sohasiga oidligini aniqlash maqsadida Patent idorasi talabnoma berilgan foydali modelni XPKning amaldagi tahriri bo'yicha tasniflaydi.

Tasniflash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

talabnoma rasmiy ekspertizasini o'tkazishda;

foydali modelga berilgan talabnoma ekspertizasini o'tkazishda.

Tasniflash XPKga kirish bilan belgilangan qoidalarga muvofiq o'tkaziladi.

Tasniflashda tasnif indekslarini tanlash uchun talabnoma berilgan foydali model formulasi asos bo'ladi. Foydali model mohiyatini to'liqroq tushunish uchun tavsif va chizmalardan foydalaniladi. Agar talabnoma XPKning turli rubrikalariga tegishli bir necha obyektlarni ichiga olgan bo'lsa, barcha mos tasnif indeksleri aniqlanadi. Bu holda birinchi indeks foydali model nomi bilan aniqlanadi. Rasmiy ekspertiza bosqichida aniqlangan tasnif indeksleri foydali model ekspertizasini o'tkazish jarayonida o'zgartirilishi mumkin.

134. Rasmiy ekspertiza natijasida talabnoma patentga layoqatli obyektlarga oid bo'lmagan taklifga berilganligi aniqlangan holda, talabnoma beruvchiga patent berishni rad etish uchun asos bo'ladigan dalillarni keltirgan holda va ularni rad etish taklif etilgan so'rovnoma yuboriladi. Talabnoma beruvchi, shuningdek, so'rovnoma jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida ko'rsatilgan mazmundagi javobni taqdim etmagan taqdirda talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanishi haqida xabardor etiladi.

O'tkazib yuborilgan muddat Patent idorasi tomonidan tiklangan holda ish yuritish davom ettirilishi mumkin.

Agar talabnoma beruvchi o'z javobida ekspertizaning dalillarini rad etmagan bo'lsa patent berishni rad etish to'g'risidagi qaror qabul qilinadi.

135. Talabnoma berilgan taklif formulaning mustaqil bandida ifodalangan ko'rinishida ushbu Qoidalarning 3-bandida keltirilgan takliflar ro'yxatiga mos bo'lsa, patentga layoqatli foydali model deb tan olinmaydi.

Talabnoma berilgan taklif ko'p zvenoli formulada ta'riflangan bo'lib, bog'liq bandning mazmuni ushbu obyektning jamiyat manfaatlariga, insonpavarlik va odob-axloq prinsiplariga zid bo'lsa, bunday obyekt ham patentga layoqatli foydali model deb tan olinmaydi.



136. Agar talabnoma tarkibida barcha zarur hujjatlar bo'lgan, ularga qo'yilgan talablarga rioya qilingan va talabnoma berilgan taklif patentga layoqatli foydali model deb tan olinmaydigan ro'yxatga oid bo'lmagan taqdirda talabnoma beruvchiga talabnoma ko'rib chiqishga qabul qilinganligi to'g'risida qaror yuboriladi.

Agar talabnoma topshirilganda patent boji formuladagi bandlar uchun belgilangan miqdordan kam to'langan bo'lsa, talabnoma beruvchi tomonidan to'langan patent boji va formulaning mustaqil bandlari sonini muvofiqlashtirish natijasida dastlab formula tarkibida bo'lgan ba'zi bandlar chiqarib tashlanganda, qarorda, shuningdek, talabnoma faqat tuzatilgan formula oid bo'lgan talabnoma berilgan deb hisoblangan foydali modelga (foydali modellarga) nisbatan ko'rib chiqishga qabul qilinganligi ko'rsatiladi va ushbu talabnoma Patent idorasida keyinchalik ko'rib chiqish davomida talabnoma beruvchi tomonidan tuzatilgan taqdirda unda boshqa foydali modelga oid mustaqil bandlar paydo bo'lishiga olib kelmasligi lozim.

#### 17-§. Foydali modelga talabnoma ekspertizasi

137. Qonunning 22-moddasi birinchi qisimga muvofiq foydali modelga talabnoma ekspertizasi belgilangan miqdordagi patent bojini to'langan taqdirda o'tkaziladi.

Patent boji to'langani haqidagi hujjat kelib tushganda talabnoma beruvchi patent boji kelib tushganlik fakti haqida xabardor qilinadi.

Agar talabnoma beruvchi tomonidan talabnoma ekspertizasini o'tkazish to'g'risidagi ariza topshirilganda patent boji belgilangan miqdordan kam to'langan bo'lsa, talabnoma beruvchiga bildirishnoma jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida to'langan patent bojini va formulaning mustaqil va bog'liq bandlari sonini muvofiqlashtirish haqida bildirishnoma yuboriladi. Talabnoma beruvchi yoki formulaning foydali modelga oid bandlarini ko'rsatishi yoki ekspertiza o'tkazilmaydigan

bandlar chiqarib tashlangan formulani va/yoki qo'shimcha patent boji to'langanini tasdiqlaydigan hujjatni taqdim etishi lozim.

138. Bildirishnomada ko'rsatilgan belgilangan miqdordagi patent bojini to'langanligini tasdiqlovchi hujjat belgilangan muddatda taqdim etilmaganda, bitta foydali modelga talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanadi, foydali modellar guruhiga talabnoma bo'yicha esa talabnomaning ekspertizasi formulaning birinchi bo'lib ko'rsatilgan bandlariga nisbatan yoki foydali modelning talabnoma beruvchi tomonidan ko'rsatilgan bandlariga nisbatan ularga patent boji to'langan holdagina o'tkaziladi.

139. Foydali modelga talabnoma ekspertizasida quyidagilar amalga oshiriladi:

foydali model ustuvorligini belgilash, agar u Qonunning 18-moddasi ikkinchi-to'rtinchi qismlariga ko'ra so'ralayotgan bo'lsa;

talabnoma beruvchi tomonidan foydali model formulasining ushbu Qoidalarning 34-52- bandlarida keltirilgan talablarga muvofiqligini tekshirish;

qo'shimcha materiallarni ushbu Qoidalarning 22-§iga muvofiq tekshirish, agar talabnoma beruvchi tomonidan bunday materiallar taqdim etilgan bo'lsa;

talabnoma beruvchi tomonidan talabnomaning dastlabki materiallarida yoki talabnomani ko'rib chiqishda e'tiborga olingan qo'shimcha materiallarda taklif qilingan formulada ta'riflangan foydali modelning patentga layoqatlilik shartlariga muvofiqligini tekshirish.

#### 18-§. Foydali model ustuvorligini belgilash

140. Sanoat mulki obyektining ustuvorligi patent berish uchun talabnoma Patent idorasiga topshirilgan sana bo'yicha belgilanadi.

Agar talabnomada foydali modelning ustuvorligi Qonunning 18-moddasi ikkinchi-to'rtinchi qismlariga ko'ra so'ralmayotgan bo'lsa, u holda ustuvorlik, tarkibida

patent berish to'g'risidagi ariza, tavsif, formula va agar ular foydali model mohiyatini tushunish uchun zarur bo'lsa chizmalar bo'lgan talabnoma Patent idorasiga topshirilgan sana bo'yicha belgilanadi.

Ko'rsatilgan hujjatlar bir vaqtda topshirilmagan taqdirda, ustuvorlik eng oxirida topshirilgan hujjat kelib tushgan sana bo'yicha belgilanadi.

141. Talabnoma beruvchi tomonidan konvension ustuvorlik so'ralayotgan holda quyidagilar tekshiriladi:

talabnoma beruvchi tomonidan Parij konvensiyasiga a'zo-davlatda topshirilgan birinchi talabnomaning nusxasi mavjudligi. Agar ko'rsatilgan nusxa talabnoma Patent idorasiga topshirilgan sanadan keyin topshirilgan bo'lsa, talabnoma beruvchi tomonidan birinchi talabnomaning nusxasi taqdim etilishi lozim bo'lgan ko'rsatilgan sanadan e'tiboran uch oylik muddatga rioya qilinganligi aniqlanadi (agar birinchi talabnomalar bir nechta bo'lsa ko'rsatilgan shartlar har bir talabnomaning nusxasi uchun bajarilishi lozim);

talabnoma beruvchi tomonidan Patent idorasiga kelib tushishi lozim bo'lgan konvensiya ustuvorligi so'ralayotgan talabnoma, birinchi talabnoma topshirilgan sanadan e'tiboran o'n ikki oylik muddatda topshirilishiga rioya qilinganligi aniqlanadi. Agar talabnoma ko'rsatilgan muddatdan kechiktirib, lekin u tugagan sanadan ikki oy o'tmasdan kelib tushgan bo'lsa, talabnoma beruvchi tomonidan talabnomani ko'rsatilgan o'n ikki oylik muddatda topshirish uchun to'sqinlik qilgan va unga bog'liq bo'lmagan shart-sharoitlar ko'rsatib o'tilganligi tekshiriladi hamda agar bunday tasdiq bo'lmagan taqdirda ularni hujjat bilan tasdiqlash zarurati aniqlanadi;

konvensiya ustuvorligini belgilash to'g'risidagi ariza talabnoma Patent idorasiga kelib tushgan sanadan e'tiboran ikki oydan kechiktirmay taqdim etilishi;

talabnoma berilgan foydali model birinchi talabnomada ochib berilganligi.

142. Talabnoma beruvchi tomonidan foydali model ustuvorligini xuddi o'sha talabnoma beruvchining bir muncha ilgariroq topshirilgan talabnomasiga berilgan qo'shimcha materiallar bo'yicha belgilash so'ralayotgan holda quyidagi talablarga rioya qilinganligi tekshiriladi:

sanasi bo'yicha ustuvorlik so'ralayotgan talabnoma Patent idorasiga qo'shimcha materiallar talabnoma berilgan foydali model mohiyatini o'zgartirishi tufayli e'tiborga olinishi mumkin emasligi haqidagi bildirishnoma talabnoma beruvchiga jo'natilgan sanadan etiboran uch oy ichida kelib tushishi lozimligi. Qo'shimcha materiallarni foydali model mohiyatini o'zgartiradi deb tan olish haqidagi xulosaga talabnomani ekspert kegashida ko'rib chiqish natijasida kelingan va bayonnomada qayd etilgan bo'lsa, yangi talabnomani taqdim etish uchun beriladigan uch oylik muddat talabnoma beruvchiga (uning patent vakili yoki ishonchli shaxsiga) bayonnoma nusxasi jo'natilgan yoki bevosita qo'lga topshirilgan sanadan hisoblanadi;

kelib tushgan sanasi bo'yicha ustuvorlik so'ralayotgan qo'shimcha materiallarda (qo'shimcha materiallar taqdim etilgan birinchi talabnomaning mazmunini hisobga olgan holda) talabnoma berilgan foydali model mohiyati ochib berilgan bo'lishi lozim.

143. Talabnoma beruvchi tomonidan foydali model ustuvorligi Patent idorasiga uning o'zi tomonidan bir muncha ilgariroq topshirilgan talabnoma sanasidan belgilash so'ralganda quyidagi talablarga rioya qilinganligi tekshiriladi:

bunday ustuvorlik so'ralayotgan talabnoma xuddi o'sha avvalgi talabnomani topshirgan talabnoma beruvchi tomonidan topshirilishi lozimligi;

bunday ustuvorlik so'ralayotgan talabnoma Patent idorasiga avvalgi talabnoma topshirilgan sanadan 12 oy mobaynida kelib tushishi lozimligi;

talabnoma berilgan foydali model mohiyati avvalroq topshirilgan talabnomada ochib berilgan bo'lishi lozimligi;

avvalroq topshirilgan talabnoma bo'yicha undan ilgariroq ustuvorlik so'ralmagan bo'lishi lozimligi.

Ustuvorlik bir necha avvalroq topshirilgan talabnomalar bo'yicha so'ralganda ko'rsatilgan talablarga rioya qilinganligi ularning har biriga nisbatan aniqlanadi.

Ko'rsatilgan ustuvorlik so'ralganda avvalroq topshirilgan talabnoma (yoki hammasi, agar ular bir nechta bo'lsa) chaqirib olingan deb hisoblanadi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi.

144. Talabnoma beruvchi tomonidan foydali model ustuvorligini ajratilgan talabnoma bo'yicha belgilash so'ralganda quyidagi talablarga rioya qilinganligi tekshiriladi:

ajratilgan talabnoma Patent idorasiga ixtiroga yoki foydali modelga birinchi talabnoma bo'yicha ustidan shikoyat berish imkoniyati qolmagan holda patent berishni rad etish to'g'risidagi qaror qabul qilingunga qadar (ya'ni talabnoma bo'yicha ish yuritishni davom ettirish mumkinligi davrida) yoki birinchi talabnoma bo'yicha patent berish to'g'risidagi qaror qabul qilingan holda foydali model yoki ixtironi O'zbekiston Respublikasining tegishli davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazish sanasigacha kelib tushishi lozim;

ajratilgan talabnomada berilgan foydali model mohiyati avvalgi talabnomada, agar talabnoma konvensiya talabnomasidan ajratib olingan va ustuvorlik uning ustuvorlik sanasi bo'yicha so'ralayotgan bo'lsa, birinchi talabnomada ochib berilgan bo'lishi lozim.

145. Ushbu Qoidalarning 141-144-bandlariga muvofiq foydali model ustuvorligini belgilash shartlariga rioya qilinganligini tekshirishda, asosida ustuvorlik so'ralayotgan talabnoma yoki ustuvorlik so'rash uchun asos bo'lgan qo'shimcha materiallar berilgan talabnoma chaqirib olinmagan bo'lishi va chaqirib olingan deb hisoblanmasligi lozim.

146. Ustuvorlik so'rash uchun asos bo'lgan avval berilgan materiallarda (avval topshirilgan talabnomada, qo'shimcha materiallarda) talabnoma berilgan foydali model mohiyati ochib berilgan bo'lishi lozimligi bilan bog'liq talabga rioya qilinganligini belgilashda quyidagilar tekshiriladi:

ushbu materiallarda (avval topshirilgan talabnomaning tavsifi, formulasida, qo'shimcha materiallarning matnli qismida) talabnoma berilgan foydali modelning formulasiga kiritilgan barcha belgilar ko'rsatilganligi;

so'ralayotgan ustuvorlik sanasida bu materiallarda foydali model mohiyati amalga oshirish uchun etarli darajada ochib berilganligi. Konvensiya ustuvorligi so'ralayotgan holda ushbu shartning bajarilganligini tekshirishda talabnoma

beruvchiga Parij konvensiyasiga a'zo davlatda berilgan birinchi talabnomaning o'zbek yoki rus tiliga tarjimasini taqdim etish taklif qilinishi mumkin.

147. Agar ustuvorlikni belgilashda kelib chiqadigan savollar foydali model ekspertizasini tugallash uchun to'sqinlik qilmasa, ular talabnomani ko'rib chiqish bilan bog'liq boshqa savollar bilan bir vaqtda aniqlanadi.

148. Talabnoma beruvchi tomonidan ushbu Qoidalarning 141-144-bandlarida ko'rsatilgan talablar bajarilgan holda talabnoma berilgan foydali modelga nisbatan so'ralgan ustuvorlik belgilanadi.

149. Talabnoma beruvchi tomonidan ushbu Qoidalarning 141-144-bandlarida ko'rsatilgan talablarning birortasi bajarilmagan holda, foydali model ustuvorligi Qonunning 18-moddasi birinchi qismiga muvofiq talabnoma Patent idorasiga toshirilgan sana bo'yicha belgilanadi.

150. Ustuvorlik belgilangandan so'ng talabnoma beruvchi tomonidan foydali modelning o'zgartirilgan formulasi taqdim etilgan holda, so'ralayotgan ustuvorlikni belgilashga asoslar mavjudligini aniqlash uchun takroran tekshirish o'tkaziladi.

#### 19-§. Foydali model formulasini tekshirish

151. Tekshirish foydali modelning talabnoma rasmiy ekspertisasi tugagan vaqtdagi dastlabki materiallardagi formulasiga nisbatan o'tkaziladi, agar u talabnoma beruvchi tomonidan bundan keyin o'zgartirilgan bo'lsa, ushbu Qoidalarning 20-§ida ko'rsatilgan talablariga rioya qilingan holda o'zgartirilgan formula tekshiriladi.

Formulani tekshirishda foydali model birligi talabi bajarilganligi aniqlanadi.

Foydali model birligi talabi buzilganligi aniqlangan holda, talabnoma beruvchiga so'rovnomaga jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida bitta foydali modelga yoki yagona ijodkorlik fikrini tashkil etgan foydali modellar guruhiga tegishli aniqliklar kiritilgan tavsif va formulani taqdim etish taklif qilinishi mumkin. Bu holda tuzatilgan

formula tarkibiga yangi bandlar kiritilganda qo'shimcha patent boji to'lash zarurligini ko'rsatib o'tiladi.

Talabnomani topshirish uchun patent boji formuladagi bandlar soni uchun belgilangan miqdordan kam to'langanda, talabnoma beruvchiga yuborilgan so'rovnomada patent boji miqdori va formula bandlari sonini formula bandlariga tuzatish kiritish va/yoki patent bojiga qo'shimcha to'lash yo'li bilan muvofiqlashtirish taklif qilinadi.

Talabnoma beruvchi belgilangan muddatda topshirilgan talabnoma doirasida qaysi foydali modelni (foydali modellarni) ko'rib chiqish lozimligi haqida ma'lum qilgan holda, tekshirish shu foydali modelning (foydali modellarning) formulasiga nisbatan o'tkaziladi.

Agar talabnoma beruvchidan belgilangan muddatda bunday xabar kelmagan taqdirda, tekshirish foydali model formulasida birinchi bo'lib ko'rsatilgan foydali modelga yoki yagona ijodkorlik fikrini tashkil etgan foydali modellar guruhiga nisbatan o'tkaziladi.

152. Foydali model formulasini tekshirishda unda talabnoma berilgan foydali modelning majmui talabnoma beruvchi tomonidan ko'rsatilgan texnik natijaga erishish uchun yetarli bo'lgan muhim alomatlari mavjudligi aniqlanadi.

Agar biron-bir muhim alomat formulaga kiritilmagan, lekin tavsifda yoki formulaning bog'liq bandida keltirilgan bo'lib, uningsiz texnik natijaga (natijalardan birortasiga, agar talabnoma beruvchi texnik natijasining bir necha turini ko'rsatgan bo'lsa) erishilmasa, talabnoma beruvchiga bunday alomatni formulaning tegishli mustaqil bandiga kiritish taklif etiladi. Bu holda texnik natijaga erishish uchun formulaga ushbu alomatni kiritish zarurligini tasdiqlaydigan dalillar keltiriladi. Bunday dalillar tavsifda ochib berilgan alomatlar va texnik natija orasidagi sabab-oqibat bog'lanishiga yoki ekspertiza tomonidan o'tkazilgan ilmiy-nazariy tahlilga asoslanishi mumkin.

153. Foydali model formulasini tekshirish undagi alomatlarni ushbu Qoidalarning 52-bandiga muvofiq aynanlashtirish mumkinligini aniqlashni ichiga oladi.

Agar alomatni aynanlashtirish mumkin bo'lishi uchun uning ta'rifini foydali model tavsifiga asosan tuzatish zarur bo'lsa, talabnoma beruvchiga bunday tuzatishni o'tkazish taklif etiladi.

Alomatni aynanlashtirish mumkinligi sharti bajarilgan bo'lib, lekin uni ta'riflash uchun eskirgan yoki ma'lum bir texnika sohasida qabul qilingan atamalarga mos bo'lmagan atamalar qo'llanilgan bo'lsa, talabnoma beruvchiga foydali model formulasiga tegishli tuzatishlarni kiritish tavsiya qilinishi mumkin.

Foydali model formulasini tekshirish formulada faqat texnik bo'lmagan natijani yoxud (elektron hisoblash mashinalari uchun dastur alomatlarini yoki bunday dasturda foydalanilayotgan algoritmi jalb qilgan holda tavsiflanadigan foydali model uchun) foydali modelni ifodalovchi vositaga taalluqli deb tan olinmaydigan natijani olish uchun zarur bo'lgan alomatlarni ushbu Qoidalarning 27-bandi qoidalarini hisobga olgan holda aniqlashni ichiga oladi.

Foydali model formulasida faqat texnik bo'lmagan natijani yoxud foydali modelni ifodalovchi vositaga taalluqli deb tan olinmaydigan natijani olish uchun zarur bo'lgan alomatlar mavjud bo'lganida, talabnoma beruvchiga formuladan bunday alomatlarni chiqarib tashlash uchun uni tuzatishni amalga oshirish tavsiya qilinadi.

Formulada foydali model obykti bo'lgan qurilmada so'zli, tasviriy yoki aralash belgilar xarakteriga ega bo'lgan alomatlar mavjud bo'lganda, talabnoma beruvchining e'tibori ushbu holatga qaratiladi. Bunda unga ushbu belgilarning bir xil bo'lishi yoki ushbu qurilma bilan bir vazifadagi tovarlar yoki xizmatlarning tegishli turlari uchun boshqa shaxslar tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan yoki o'tkazilishi mumkin bo'lgan tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgilari) bilan, yoxud tovar kelib chiqqan joy nomlari bilan aralashtirib yuborish darajasida o'xshashi mumkinligi va foydali modeldan foydalanilganda patent egasi va tovar belgisi (xizmat ko'rsatish belgisi)ning egasi huquqlarining to'qnashishi yoxud ro'yxatdan o'tkazilgan tovar kelib chiqqan joy nomidan noqonuniy foydalanilishi mumkinligi to'g'risida xabar qilinadi va formuladan bunday alomatlarni chiqarib tashlash uchun tuzatishni amalga oshirish taklif qilinadi.



154. Agar foydali model formulasi tarkibida umumiy tushuncha bilan ifodalangan alomat bo'lsa, undan foydalanish qonuniyligi ushbu Qoidalarining 42-bandiga muvofiq aniqlanadi.

Xususan, agar alomat funksiya, xususiyat darajasida ta'riflangan bo'lsa, u holda talabnoma beruvchi tomonidan ko'rsatilgan texnik natijani olish uchun bunday shaklda ta'riflangan alomatning foydali model formulasining mustaqil bandiga kiritilgan qolgan alomatlari bilan birgalikda yetarli ekanligini tasdiqlovchi ma'lumotlarning tavsifda mavjudligi tekshiriladi.

155. Agar talabnoma beruvchi tomonidan ko'rsatilgan texnik natijani olish mumkinligi haqida faqat eksperimental ma'lumotlar guvohlik bersa, foydali model tavsifida tegishli ma'lumotlar keltirilgan holda uni amalga oshirish misollari, hamda bunday texnik natijani na faqat keltirilgan misollar doirasidagi xususiy hollarda erishish mumkinligi va talabnoma beruvchi tomonidan foydali model alomatlarini ta'riflashda qo'llanilgan umumlashtirish darajasining to'g'riligi haqida xulosa chiqarish uchun yetarliligi tekshiriladi.

Ekspertiza tomonidan ushbu umumiy tushunchaga kiradigan, lekin boshqa muhim alomatlar bilan birgalikda talabnoma beruvchi tomonidan ko'rsatilgan texnik natijani olishni ta'minlamaydigan alomatlarni amalga oshirishning xususiy shakllari aniqlangan holda, talabnoma beruvchiga tegishli dalillar keltiriladi va ularni rad etish yoxud formulaga foydali model tavsifi asosida tuzatishlar kiritish taklif qilinadi.

Agar foydali modelning formulasida talabnoma beruvchi tomonidan formulaga kiritilgan alomatlarni ta'riflashda ishlatilgan tushunchalar aniqlangan bo'lsa, ammo ular tavsifda mavjud bo'lmasa, talabnoma beruvchi uning tomonidan taqdim etilgan formula chizmalarni inobatga olgan holda tavsifga asoslanmaganligi haqida xabardor qilinadi va tavsifga ushbu tushunchalarni kiritish taklif qilinadi.

156. Formulani ushbu Qoidalarining 52-bandi talablariga muvofiqligini tekshirishda foydali model ta'riflangan tushunchalar uning tavsifida keltirilganligi yoki chizmada ifodalanganligi aniqlanadi.

157. Agar talabnomada bir zvenoli formula yoki bitta mustaqil bandli ko'p zvenoli formula keltirilgan bo'lsa, bunday formulada (ushbu Qoidalarining 4-bandi talablariga muvofiq) bitta foydali model ta'riflanishi lozimligi tekshiriladi.

158. Ko'rsatilgan talablar buzilganligi aniqlangan holda talabnoma beruvchiga yuboriladigan so'rovnoma bu haqida ma'lum qilinadi va tegishli patent bojini to'lab, aniqlangan kamchilikni tugatish uchun formulani tuzatish taklif qilinadi. Bu holda, shuningdek tuzatilgan formulada foydali model birligi talabi bajarilishi va tuzatilgan formulaga avval mustaqil band sifatida ko'rsatilmagan yangi mustaqil bandlar kiritilgan holda, tegishli patent bojini to'lash, yoxud talabnoma beruvchi formulani tuzatishni rad etgan holda, foydali modelni keyinchalik ko'rib chiqish zarurligi to'g'risida ko'rsatiladi.

Agar talabnoma beruvchi tomonidan alomatni ta'riflash uchun muqobil tushunchalardan foydalanish sharti bajarilmaganligi ko'rsatilgan xulosaga kelish uchun asos bo'lsa, xatolik aniqlangan tushunchalarga nisbatan yo'l qo'yilgan xatoning turi aniq muqobil ta'riflarni (talabnoma beruvchi tomonidan keltirilgan hammasi yoki ba'zi birlari) keltirgan holda ko'rsatiladi.

159. Agar talabnoma beruvchi tomonidan bir nechta mustaqil bandli ko'p zvenoli formula taklif qilingan bo'lsa, ularning har biri (o'ziga bog'liq bandlar bilan birgalikda, agar ular bo'lsa) ushbu Qoidalarining 42-bandi talablariga muvofiq tahlil qilinadi.

160. Formulani tekshirish shuningdek quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) foydali model ko'p zvenoli formulasining bog'liq bandlarida foydali modelning tegishli xususiy bajarilish hollaridagi yoki jamiyat manfaatlari, insonparvarlik yoki axloq-odob qoidalariga zid alomatlar mavjudligini aniqlash;

b) foydali model formulasida o'zi bog'liq bo'lgan bandning alomatini (alomatlarini) chiqarib tashlashni yoki almashtirishni ko'zda tutadigan bog'liq bandning mavjudligi.

161. Har bir mustaqil bandi (o'ziga bog'liq bandlar bilan birgalikda, agar ular bo'lsa) bitta foydali modelni ta'riflaydigan ko'p zvenoli formulaga nisbatan unga

kiritilgan foydali modellar yagona ijodkorlik fikrini tashkil qilgan foydali modellar guruhidan iboratligi aniqlanadi.

Agar formulaning mustaqil bandlarida ta'riflangan foydali modellar o'zaro yagona ijodkorlik fikrini hosil qilgan holda bog'liq bo'lsa, yagona ijodkorlik fikrini tashkil qilganlik sharti bajarilgan deb e'tirof etiladi.

162. Mustaqil bandlarida ta'riflangan foydali modellarni variantlarga tegishliligi to'g'riligini tekshirishda foydali modellarning talabnoma beruvchi tomonidan ko'rsatilgan vazifasi va texnik natijalar mos tushganligiga ishonch hosil qilish lozim.

Agar guruhdagi foydali modellarning har biri uchun bir necha texnik natijalar ko'rsatilgan bo'lib, mos tushishi faqat ba'zilariga nisbatan aniqlangan bo'lsa, texnik natijalar mos tushganlik sharti buzilgan deb hisoblanmaydi.

Texnik natijaning barcha foydali modellar uchun umumiy ta'rifidan tashqari birortasining ta'rifida o'ziga xos alohida xususiyati ("ishqalanishning kamayishi" va "yuqori namlik sharoitlarida ishqalanishning kamayishi") ko'rsatilgan holda texnik natijalar mos tushganlik sharti buzilgan deb hisoblanmaydi.

163. Agar talabnoma beruvchi tomonidan taqdim etilgan foydali model formulasini tekshirishda u formulaning tuzilishi va bayon qilinishiga belgilangan talablarga muvofiq emasligi aniqlangan bo'lsa, shu jumladan bunday muvofiq emaslik rasmiy ekspertiza o'tkazishda aniqlanmagan holda ham foydali model formulasini tuzatish taklif qilinadi.

Agar talabnoma beruvchi tomonidan taqdim etilgan foydali model formulasini tahlil qilishda u ushbu Qoidalar talablarini buzgan holda tuzilgan bo'lsa, ammo ushbu kamchiliklar talabnoma berilgan foydali modelning patentga layoqatliligini tekshirishga to'sqinlik qilmasa, u holda foydali model formulasini tuzatish bilan bog'liq barcha savollar bunday formula bilan ta'riflangan foydali modelning patentga layoqatlilik to'g'risida dastlabki xulosa olingandan so'ng talabnoma beruvchi bilan aniqlashtiriladi.

164. Ekspertiza so'rovnomasiga ko'ra yoki talabnoma beruvchining o'z tashabbusiga ko'ra o'zgartirilgan formulaga nisbatan ushbu Qoidalarning 152-162-bandlariga muvofiq tekshirish o'tkaziladi.

Foydali modelning patentga layoqatliligini tekshirish uchun talabnoma beruvchi tomonidan tasdiqlangan o'zgartirishlar kiritilgan formula qabul qilinadi.

165. Tekshirishda bir zvenoli formula yoki bitta mustaqil bandli ko'p zvenoli formula bittadan ortiq foydali modelga oidligi aniqlangan bo'lsa va talabnoma beruvchi formulani tuzatishdan bosh tortsa, ekspertizani davom ettirish talabnoma beruvchi tomonidan keyingi ko'rib chiqish lozim bo'lgan foydali model ko'rsatilgan holda mumkin bo'ladi va bu holda patentga layoqatlilikni baholash faqat ushbu foydali modelga nisbatan amalga oshiriladi.

166. Talabnoma berilgan foydali modelning patentga layoqatliligini tekshirish uchun ushbu paragrafga muvofiq tekshirish o'tkazilgan formula qabul qilinadi.

#### 20-§. Foydali modelning patentga layoqatliligini tekshirish

167. Talabnoma berilgan foydali modelning patentga layoqatliligini tekshirishda qo'shimcha ravishda u patentga layoqatli deb tan olinmaydigan takliflar ro'yxatiga oid emasligi tekshiriladi va foydali modelning sanoatda qo'llash mumkinligi va yangilik shartlariga muvofiqligi aniqlanadi.

Talabnoma berilgan obyekt muhofaza qilinmaydigan takliflar ro'xatiga oid deb, taxmin qilingan holda, talabnoma beruvchiga tegishli dalillarni bayon qilib so'rovnoma yuboriladi.

168. Ushbu Qoidalarning 3-bandiga asosan muhofaza qilinmaydigan obyektlarga oid deb xulosa chiqarilmagan talabnoma berilgan taklifning sanoatda qo'llash mumkinligi va yangilik shartlariga muvofiqligi tekshiriladi.

169. Talabnoma beruvchi tomonidan taqdim etilgan formulada muqobil tushunchalar bilan ifodalangan belgi bo'lsa, patentga layoqatliligini tekshirish bunday

tushunchalardan birini ichiga olgan alomatlarning har bir majmuiga nisbatan o'tkaziladi.

170. Talabnoma berilgan foydali modelning patentga layoqatliligini tekshirishda muallif, talabnoma beruvchi yoki ulardan bevosita yoxud bilvosita shu axborotni olgan har qanday shaxs tomonidan foydali model mohiyati ommaviy tarzda oshkor etilgan axborotni ichiga olgan manba, agar foydali modelga talabnoma axborot oshkor etilgan sanadan e'tiboran olti oydan kechikmagan muddat ichida Patent idorasiga topshirilgan bo'lsa, texnika taraqqiyoti darajasiga kiritilmaydi.

171. Qonunning 7-moddasi to'rtinchi qismiga ko'ra agar foydali modeldan amaliy jihatdan foydalanish mumkin bo'lsa, uni sanoatda qo'llash mumkin deb hisoblanadi.

172. Talabnoma berilgan taklifning ta'riflanishi bo'yicha uni tushunish mumkin bo'lmasa yoki uni Qonunning 7-modda yettinchi qismiga ko'ra patentga layoqatlilik foydali model sifatida e'tirof etilmaydigan obyektlarga oid deb hisoblashga asos bo'lsa, talabnoma beruvchiga aniqlangan kamchiliklarni ko'rsatib, huquqiy xarakterdagi zarur dalil-isbotlarni keltirgan holda va so'rovnoma jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida yetishmagan yoki tuzatilgan hujjatlarni yuborish taklif etilgan so'rovnoma yuboriladi.

173. Agar talabnoma beruvchi belgilangan muddatda so'ralgan materiallarni yoki ularni taqdim etish muddatini uzaytirish haqidagi iltimosnomani taqdim etmasa, talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanadi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi. Talabnoma bo'yicha ish yuritish to'xtatiladi.

174. Patent idorasi tomonidan o'tib ketgan muddatlar tiklangan holda ish yuritish davom ettirilish mumkin (ushbu Qoidalarning 11-§).

175. Foydali modeldan foydalanish mumkinligini aniqlashda talabnoma materiallarida foydali modelning talabnoma berilgan obyektining vazifasi ko'rsatilganligi tekshiriladi.

Talabnomaning birinchi materiallarida shuningdek, foydali modelni formula bandlarining har birida tariflangan ko'rinishida amalga oshirish uchun kerak bo'lgan

vositalar va usullar bayon qilinganligi tekshiriladi. Talabnoma materiallarida bunday materiallar bo'lmagan holda, ko'rsatilgan vositalar va usullar foydali model ustuvorligi sanasigacha ommaviy tarzda oshkor bo'lgan adabiyot manbaida bayon qilingan bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, foydali modelni amalga oshirgan holda talabnoma beruvchi tomonidan ko'rsatilgan vazifasi haqiqatdan ham bajarilishi mumkinligiga ishonch hosil qilish lozim.

Agar foydali modelni amalga oshirish va ko'rsatilgan vazifani bajarish mumkinligi haqida faqat eksperimental ma'lumotlar guvohlik bersa, foydali model tavsifida tegishli ma'lumotlar keltirilgan holda uni amalga oshirish misollari (ushbu Qoidalarning 31-bandi) tekshiriladi hamda keltirilgan misollar ko'rsatilgan talabga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosa talabnoma beruvchi tomonidan foydali modelning formulasida keltirilgan tushuncha doirasida alomatni amalga oshirishning turli xususiy shakllariga tarqalishi uchun yetarli bo'lganligi aniqlanadi.

176. Agar foydali model ustuvorlik sanasigacha barcha ko'rsatilgan talablarga rioya qilinganligi aniqlangan holda, formulaning ushbu mustaqil bandida ta'riflangan foydali model sanoatda qo'llash mumkinligi shartiga muvofiq deb e'tirof etiladi.

Ko'rsatilgan talablardan birortasi bajarilmagan holda, foydali model sanoatda qo'llash mumkinlik shartiga muvofiq emasligi haqida xulosa chiqariladi. Bu holda talabnoma beruvchiga tegishli dalillar bayon qilinganda, bu dalillarga nisbatan o'z fikrini bildirish va foydali model formulasini tuzatish taklif qilingan (agar ekspertiza fikriga ko'ra talabnoma materiallarini tuzatish natijasida ko'rsatilgan xulosani o'zgartirish mumkin balsa) so'rovnoma yuborilishi mumkin.

177. Sanoatda qo'llash mumkinlik shartiga muvofiq emasligi aniqlangan foydali modelga nisbatan yangilik shartiga muvofiqligi tekshirilmaydi.

178. Qonunning 7-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra foydali model agar texnika taraqqiyoti darajasidan ma'lum bo'lmasa, yangi deb hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti darajasi talabnomada ko'rsatilgan foydali model amalga oshirishi mumkin bo'lgan vazifalarni bajara oladigan vositalar haqidagi, O'zbekiston Respublikasida hamma

foydalana oladigan barcha ma'lumotlarni, shuningdek, ularni qo'llashga doir ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Foydali modelning yangiligini tekshirish foydali model formulasining mustaqil bandidagi barcha alomatlar majmuiga nisbatan o'tkaziladi.

179. Axborot qidiruvi foydali model formulasi asosida tavsif va chizmalarni hisobga olgan holda, va shuningdek foydali model formulasining ushbu Qoidalarning 22-§iga muvofiq mumkin bo'lgan o'zgarishlarini hisobga olgan holda o'tkaziladi.

180. Agar talabnoma bo'yicha ekspertiza o'tkazish haqidagi ariza kelib tushgan sanagacha talabnoma beruvchi foydali model birligi talabi buzilganligi haqidagi xabarga belgilangan muddatda javob bermagan bo'lsa, axborot qidiruvi formulada birinchi ko'rsatilgan foydali model (yagona ijodkorlik fikrini tashkil qilgan foydali modellar guruhi) bo'yicha o'tkaziladi.

181. Texnika taraqqiyoti darajasini aniqlashda har bir shaxs o'zi tanishishi mumkin bo'lgan yoki mazmuni qonuniy yo'l bilan ma'lum qilinishi mumkin bo'lgan axborot manbaidagi ma'lumotlar ommaviy tarzda oshkor etilgan ma'lumotlar deb hisoblanadi.

Quyidagilar axborot manbaini texnika taraqqiyoti darajasiga kiritishni belgilaydigan sana bo'lib hisoblanadi:

muhofaza hujjatlariga e'lon qilingan tavsiflar uchun - ularda ko'rsatilgan e'lon qilish sanasi;

milliy bosma nashrlar va sobiq SSSR bosma nashrlari uchun - ularda ko'rsatilgan nashr etishga imzo qo'yilgan sana;

nashr etishga imzo qo'yilgan sana ko'rsatilmagan milliy bosma nashrlar va sobiq SSSR bosma nashrlari uchun va shuningdek, boshqa bosma nashrlar uchun - ular nashr qilingan kun, uni aniqlash imkoniyati bo'lmaganda esa - agar nashr qilingan vaqti faqat yil va oy bilan aniqlangan bo'lsa, oyning oxirgi kuni yoki nashrda ko'rsatilgan yilning 31 dekabri;

me'yoriy texnika hujjatlari uchun - ularni vakolatli tashkilotda ro'yxatdan o'tkazilgan sana;

ko'z bilan qabul qilinadigan axborot manbalari (plakatlar, modellar, mahsulotlar va h.k.) uchun - ularni ko'rish mumkin bo'lgan va hujjat bilan tasdiqlangan sana;

ko'rgazmaga qo'yilgan eksponatlar uchun - ularni ko'rsatish boshlangan va hujjat bilan tasdiqlangan sana;

texnika vositasi haqidagi, undan foydalanish natijasida ma'lum bo'lgan ma'lumotlar uchun - ushbu ma'lumotlar hamma tanishish imkoniyatiga ega bo'lgan va hujjat bilan tasdiqlangan sana.

Quyidagi shartlar majmui bajarilgan holda birmuncha oldinroq ustuvorlikka ega bo'lgan foydali model yoki ixtiroga talabnoma texnika taraqqiyoti darajasiga ustuvorlik sanasidan e'tiboran kiritiladi:

talabnoma O'zbekiston Respublikasida topshirilgan holda;

talabnoma boshqa shaxs, ya'ni boshqa talabnoma beruvchi tomonidan topshirilgan holda;

talabnoma chaqirib olinmagan va chaqirib olingan deb hisoblanmagan holda.

Talabnoma ariza, tavsif, formula va chizmalar kelib tushgan sanadan e'tiboran ushbu talabnoma tarkibida bo'lgan tavsif va formulaga nisbatan (ixtiroga talabnomalar uchun - agar tavsifda ularga havola qilingan bo'lsa) texnika taraqqiyoti darajasiga kiritiladi. Agar bu sana ko'rilayotgan talabnomaning ustuvorlik sanasidan keyinroq bo'lsa, avvalroq ustuvorlikka ega bo'lgan talabnomaning ustuvorlikni belgilash uchun asos bo'lgan materiallar (birinchi talabnoma, avvalroq topshirilgan talabnoma, ushbu talabnomaga qo'shimcha materiallar) mazmuni bilan mos tushgan qismi uchun texnika taraqqiyoti darajasiga kiritiladi.

Texnika taraqqiyoti darajasiga shuningdek, O'zbekiston Respublikasida patentlangan (shu jumladan ushbu shaxs tomonidan ham) barcha foydali modellar va ixtirolar kiritiladi.



O'zbekiston Respublikasida patentlangan foydali modellar va ixtirolar tegishli reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan ixtirolar va foydali modellar formulasiga nisbatan texnika taraqqiyoti darajasiga kiritiladi.

182. Patent hujjatlaridagi qidiruv sohasining ta'rifi sifatida XPK rubrikalarining indekslaridan foydalaniladi.

183. Qidiruv jarayonida xuddi shunday vazifani bajaradigan qidiruv o'tkazilayotgan foydali model alomatlariga aynan o'xshash bo'lgan alomatlar bilan ta'riflanadigan vosita topilgan taqdirda ham axborot qidiruvi to'xtatilmaydi va oxirigacha to'liq hajmda olib boriladi. Qidiruv jarayonida topilgan analoglar soni texnika taraqqiyoti darajasi haqidagi takrorlashsiz va keraksiz qaytarishlarsiz to'liq va mazmunli axborot olish sharti bilan aniqlanadi.

184. Agar texnika taraqqiyoti darajasidan talabnoma beruvchi tomonidan taklif etilgan foydali model formulasida bo'lgan barcha alomatlarga aynan o'xshash alomatlarga ega bo'lgan vosita aniqlangan bo'lsa, foydali model yangilik shartiga muvofiq emas deb e'tirof etiladi.

Agar talabnoma berilgan foydali model qurilmani yangi vazifada qo'llashga taalluqli bo'lsa va aynan o'sha qurilmaning talabnoma beruvchi tomonidan ko'rsatilgan vazifada qo'llanilishi ma'lum bo'lgan axborot manbai aniqlansa, u holda u yangilik shartiga muvofiq emas deb e'tirof etiladi.

185. Texnika taraqqiyoti darajasidan aniqlangan, ko'rilyotgan foydali model ma'lum bo'lgan axborot manbai bir muncha oldinroq ustuvorlikka ega bo'lgan talabnoma bo'lgan holda, bu talabnoma chaqirib olinmagan va chaqirib olingan deb hisoblanmasligiga ishonch hosil qilish lozim.

Agar talabnoma chaqirib olinmagan va chaqirib olish muddati o'tmagan bo'lsa, ko'rilyotgan foydali modelning talabnoma beruvchisiga shunday talabnoma mavjudligi haqida (uning talabnoma beruvchisini ko'rsatmasdan va mazmunini ochmasdan) va uning talabnomasini ko'rish bir muncha oldinroq ustuvorlikka ega bo'lgan talabnoma bo'yicha bir qarorga kelingunga qadar to'xtatib turilishi haqida ma'lum qilinadi.

Talabnoma beruvchi talabnomani ko'rish to'xtatib turilishiga norozi bo'lgan holda, talabnoma berilgan foydali modelning yangilik shartiga muvofiq emasligi belgilanadi.

186. Agar formulaning bog'liq bandlariga ega bo'lgan mustaqil bandida ta'riflangan foydali model yangilik shartiga muvofiq bo'lsa, bog'liq bandlarga nisbatan texnika taraqqiyoti darajasini tahlili o'tkazilmaydi.

187. Formulaning bog'liq bandlariga ega bo'lgan mustaqil bandida ta'riflangan foydali model yangi deb e'tirof qilinmasa, talabnomani bundan keyin ko'rib chiqilishi ushbu Qoidalarning 189-192-bandlariga muvofiq o'tkaziladi.

188. Bog'liq bandlarga ega bo'lmagan formula bilan ta'riflangan foydali modelning yangilik shartiga muvofiq emasligi aniqlangan holda, talabnoma beruvchiga ekspertiza dalillarini bayon qilgan holda va bu dalillarga nisbatan o'z fikr-mulohazalarini va zarur holda talabnomaning dastlabki materiallari asosida foydali modelning tuzatilgan formulasini taqdim etish taklif qilingan so'rovnoma yuborilishi mumkin.

189. Agar foydali model tarkibida bog'liq bandlar bo'lgan ko'p zvenoli formula bilan ta'riflangan bo'lsa va mustaqil bandning yangilik shartiga javob bermasligi sababli patentga layoqatli emasligi haqida xulosa olingan holda, talabnoma beruvchiga bu haqida ma'lum qilinadi va talabnomani ko'rib chiqishni davom ettirish maqsadga muvofiqligi haqidagi fikrini bildirishni va agar ko'rib chiqish maqsadga muvofiqligini tasdiqlagan holda, foydali modelning tuzatilgan formulasini taqdim etish taklif etiladi. Mustaqil bandga bog'liq bandlarning mazmunini qo'shganda e'tiborga olinishi mumkin bo'lgan axborot manbalari ekspertga ma'lum bo'lganda, talabnoma beruvchiga bu haqida ma'lum qilinishi mumkin.

190. Bog'liq bandlarga ega bo'lgan mustaqil bandga nisbatan foydali modelning patentga layoqatliligi aniqlangan holda, ushbu bog'liq bandlardagi foydali model belgilarining ta'rifi foydali modelni amalga oshirishga yoki talabnoma beruvchi tomonidan ko'rsatilgan vazifasini bajarishiga to'sqinlik qilmasligiga ishonch hosil qilishi lozim. Bundan tashqari, bog'liq bandlardagi belgilarni jalb qilgan holda ta'riflangan

foydali model jamiyat manfaatlariga, axloq-odob qoidalariga zid emasligiga ishonch hosil qilishi lozim.

191. Bog'liq bandlarga ega bo'lgan ko'p zvenoli formula bilan ta'riflangan foydali modelni yuqorida ko'rsatilgan barcha shartlarga nisbatan tekshirish natijasi ijobiy bo'lgan holda patentga layoqatli deb tan olinadi va patent berish to'g'risida qaror chiqariladi.

192. Shartlardan birortasiga nisbatan tekshirish natijasi salbiy bo'lgan holda talabnoma beruvchiga bu haqida so'rovnomada ma'lum qilinadi va ekspertiza xulosasini rad etuvchi dalillarini taqdim etish yoki formulani tuzatish yoxud foydali model formulasidan bunday bog'liq bandlarni chiqarib tashlash taklif etiladi.

193. Agar talabnoma foydali modellar guruhiga berilgan bo'lsa, patentga layoqatlilikni tekshirish guruhga kirgan har bir foydali modelga nisbatan o'tkaziladi. Guruhning patentga layoqatliliigi undagi barcha foydali modellar patentga layoqatli bo'lgan holda tasdiqlanadi.

Agar guruhning hamma foydali modellari patentga layoqatli emasligi aniqlangan bo'lsa, talabnoma beruvchiga bu haqida ma'lum qilinadi va keltirilgan dalillar haqida o'z fikrini bildirish, hamda zarur holda patentga layoqatli bo'lmagan foydali modellar ta'riflangan mustaqil bandlarni (va unga bo'ysungan bog'liq bandlarni) formuladan chiqarib tashlash yoxud bu bandlarni tuzatilgan holda taqdim etish taklif etiladi.

194. Agar yuqorida keltirilgan hollarda talabnoma beruvchi tomonidan foydali modelning o'zgartirilgan formulasi taqdim etilgan bo'lsa, talabnomani ko'rib chiqishni davom ettirish ushbu formulada ta'riflangan foydali modelga (foydali modellarga) nisbatan ushbu Qoidalarning 151-166-bandlariga muvofiq o'tkaziladi.

Talabnoma beruvchi ekspertiza xulosasini rad etuvchi dalillarni yoki o'zgartirilgan formulani keltirmasdan avvalgi formula bilan patent berishni talab qilgan holda talabnomani ko'rib chiqish davom ettirilmaydi va patent berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

195. Qonunning 20-moddasiga muvofiq talabnoma beruvchiga qo'shimcha materiallarni, shu jumladan foydali modelning o'zgartirilgan formulasi so'ralgan so'rovnoma, bunday materiallarsiz foydali modelga talabnoma ekspertizasini o'tkazish mumkin bo'lmagan hollarda yuboriladi.

So'rovnoma yuborish uchun quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

patent bojining to'g'ri to'langanligi bilan bog'liq savollarni aniqlash zaruriyati;

foydali model formulasini ushbu Qoidalarning 21-§iga muvofiq tekshirish natijalari bo'yicha aniqlash zaruriyati;

talabnoma berilgan foydali modelning patentga layoqatliligini ushbu Qoidalarning 20-§iga muvofiq tekshirish bilan bog'liq savollarni hal qilish zaruriyati;

talabnoma berilgan foydali modelning patentga layoqatliligini tekshirish natijalari bo'yicha foydali model formulasiga aniqliklar kiritish zaruriyati;

bir xil ustuvorlik sanasiga ega bo'lgan aynan o'xshash sanoat mulki obyektlariga talabnomalarni ko'rib chiqish bilan bog'liq savollarni hal qilish zaruriyati.

Talabnomani ko'rib chiqishda yuzaga keladigan boshqa turdagi savollar, masalan, ustuvorlikni belgilash, foydali modelning muhim belgisi ta'rifini aniqlashtirish bilan va hokazolar bog'liq savollar, va shuningdek taklif va mulohazalar yuqoridagi asoslarga ko'ra yuboriladigan so'rovnomaga kiritilishi mumkin.

So'rovnoma yuborish uchun yuqorida ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lmagan holda talabnoma beruvchiga paydo bo'lgan taklif va mulohazalar haqida bildirishnoma yuboriladi.

Ushbu Qoidalarning 165-166-bandlariga muvofiq ko'rib chiqilgan foydali modelning (foydali modellarng) patentga layoqatliligi aniqlangan holda, bu haqida yuborilgan so'rovnomada talabnoma beruvchiga ma'lum qilinadi va undan patentga layoqatliligi baholanmagan foydali modelning ta'rifini chiqarib tashlash yo'li bilan, yoki bunday foydali modelning tegishli patent bojini to'lab mustaqil bandga ajratish yo'li bilan formulani tuzatish taklif etiladi. Bu holda talabnoma beruvchi belgilangan

muddatda so'ralgan materiallarni yoki ko'rsatilgan muddatni uzaytirish haqidagi iltimosnomani taqdim etmasa, talabnoma Qonunning 20-moddasiga muvofiq chaqirib olingan deb hisoblanadi.

196. Ekspertizaning so'rovnomada yoki xatda keltiriladigan fikr va mulohazalari ilmiy-texnik yoki huquqiy xarakterdagi isbot-dalillar bilan asoslanadi. Zarur hollarda ilmiy-texnik adabiyotlarga, Qonun, ushbu Qoidalar va boshqa me'yoriy hujjatlarning qoidalariga havolalar beriladi.

197. Talabnoma beruvchi patentga layoqatli emasligi haqida xulosa chiqarilgan foydali model formulasiga aynanlashtirilmagan yoki talabnomaning dastlabki materiallarida bo'lmagan alomatlarini yoxud ta'rifi axborot manbaiga izoh bilan almashtirilgan alomatni kiritishni yoki talabnoma beruvchi tomonidan talabnoma topshirilgandan keyin taklif etilgan va ushbu Qoidalarning 166-bandiga muvofiq e'tiborga olinmagan yangi mustaqil bandni kiritishni talab qilgan hollarda talabnoma beruvchiga ko'rsatilgan alomatni va/yoki bandni ichiga olmagan formulani taqdim etish taklif qilingan so'rovnoma yuboriladi. Shuningdek, bu holda talabnoma beruvchi belgilangan muddatda so'ralgan materiallar yoki ularni taqdim etish muddatini uzaytirish haqidagi iltimosnoma berilmasa, talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanishi haqida xabardor qilinadi.

198. So'rovnomada axborot manbai keltirilgan holda shu manbani topish uchun zarur bo'lgan barcha bibliografiya ma'lumotlari, va shuningdek talabnomani ko'rib chiqishda e'tiborga olingan ma'lumotlarni ushbu manbadan topish uchun kerak bo'ladigan boshqa ma'lumotlar (betlari, xatboshisi, grafik tasvirlarning figura raqami va h.k.) ko'rsatilishi lozim.

199. So'rovnoma yuborish uchun talabnoma berilgan foydali modelni patentga layoqatlilikka tekshirish natijalari bo'yicha foydali model formulasini aniqlashtirish zaruriyati asos bo'lgan holda aniqliklar kiritilgan tavsif va/yoki chizmalarni (o'rnini bosuvchi varaqlarni) ham taqdim etish lozim.

Tavsif va/yoki chizmalarda kamchiliklar, shu jumladan ekspertiza tomonidan avval ko'rsatilgan, lekin tuzatilmagan kamchiliklar mavjud bo'lgan holda ham shunday taklif qilinishi mumkin.

Ko'rsatib o'tilgan xabarlarda talabnoma hujjatlarini kerakli tarzda tuzatishga doir aniq tushuncha berishlar keltiriladi.

200. O'zgartirilgan formula (talabnoma beruvchining tashabbusiga yoki ekspertiza taklifiga ko'ra) bilan patent berish to'g'risidagi qaror tayyorlangan holda, formulani o'zgartirish tavsifga ham tuzatishlar kiritishni taqozo etsa, va shuningdek tavsif va/yoki chizmalarda kamchiliklar, shu jumladan ekspertiza tomonidan avval ko'rsatilgan, lekin tuzatilmagan kamchiliklar mavjud bo'lgan hollarda ham aniqliklar kiritilgan tavsif va/yoki chizmalarni (almashtiriluvchi varaqlarni) ham shunday taklif jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida taqdim etish taklif qilinishi mumkin.

201. So'ralgan materiallar ko'rsatilgan muddatda yoki belgilangan muddatni uzaytirish to'g'risidagi iltimosnoma taqdim etilmagan hollarda talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanadi.

202. Agar talabnoma beruvchi tomonidan taqdim etilgan javob so'ralgan ma'lumotlar yoki hujjatlarning hammasini o'z ichiga olmagan bo'lsa, yetishmayotgan va tuzatilgan materiallar tug'risidagi so'rovnoma talabnoma beruvchiga talabnoma va uning hujjatlaridagi kamchiliklar bartaraf qilish uchun necha marta zarur bo'lsa, shuncha marta yuborilishi mumkin.

#### 22-§. Qo'shimcha materiallarni tekshirish

203. Talabnoma beruvchining tashabbusiga ko'ra talabnoma rasmiy ekspertizasini muddatidan oldin boshlash haqidagi iltimosnoma berilgandan so'ng yoki bunday iltimosnoma berilmagan bo'lsa, talabnoma kelib tushgan sanadan ikki oy o'tgandan keyin talabnoma hujjatlariga tuzatishlar yoki aniqliklar kiritadigan (ya'ni ularning tarkibiga kiritilishi lozim bo'lgan) qo'shimcha materiallar kelib tushgan taqdirda, ular bilan birga belgilangan miqdorda patent boji to'langanini tasdiqlaydigan hujjat ham taqdim etilganligini tekshirish lozim. Qo'shimcha materiallar bilan birga bunday hujjat taqdim etilmagan holda, ular talabnomani ko'rib chiqishda e'tiborga olinmaydi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi. Bunday bildirishnoma

ekspertizaning talabnoma beruvchiga yo'llanadigan navbatdagi hujjati mazmuniga kiritilishi mumkin.

204. Talabnoma hujjatlaridagi o'zgartirishlar talabnoma beruvchining tashabbusiga ko'ra kiritilgan o'zgartirishlarga oidligi masalasini hal qilishda quyidagilarni e'tiborga olish kerak:

agar talabnoma hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar ularni tayyorlashda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni yo'qotishga qaratilgan bo'lsa, talabnoma beruvchi tomonidan ekspertizaning yozma ravishda berilgan xabari, shu jumladan so'rovnomasini olgandan so'ng, va shuningdek bundan xabarni olmasdan taqdim etilgan o'zgartirishlar talabnoma beruvchining tashabbusiga ko'ra kiritilgan deb hisoblanmaydi;

agar talabnoma beruvchi tomonidan talabnoma hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar ekspertizaning yozma ravishda berilgan xabari, shu jumladan so'rovnomasining mazmuni bilan bog'liq bo'lib, uni olgandan so'ng taqdim etilgan bo'lsa, o'zgartirishlar talabnoma beruvchining tashabbusiga ko'ra kiritilgan deb hisoblanmaydi.

Talabnoma beruvchi tomonidan ekspertizaning yozma ravishda berilgan xabari, shu jumladan so'rovnomasini olgandan so'ng, va shuningdek bundan xabarni olmasdan taqdim etilgan barcha boshqa o'zgartirishlar talabnoma beruvchining tashabbusiga ko'ra kiritilgan deb hisoblanadi.

205. Qo'shimcha materiallar tarkibida foydali modelning o'zgartirilgan formulasi bo'lgan holda ular formulani foydali modelning dastlabki formulada mustaqil band sifatida ajratib ko'rsatilmagan bir yoki bir necha mustaqil bandlarni kiritishi yo'li bilan o'zgartirishni ko'zda tutishi va qo'shimcha materiallar bilan birga tegishli patent boji to'langanini tasdiqlaydigan hujjat muddatlarga rioya qilingan holda taqdim etilganligi aniqlanadi.

206. Talabnoma beruvchi tomonidan Patent idorasining so'rovnomasiga ko'ra taqdim etilgan qo'shimcha materiallar bo'yicha ularni taqdim etish muddatlariga rioya qilinganligi tekshiriladi.

Talabnoma beruvchi tomonidan talabnomaga qarshi qo'yilgan materiallar nusxasi so'ralgan holda, agar ular ekspertiza so'rovnomasi olingan sanadan e'tiboran bir oy ichida so'ralgan bo'lsa, qo'shimcha materiallar ko'rsatilgan nusxalar talabnoma beruvchiga jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida taqdim etilishi mumkin.

207. Talabnoma beruvchining tashabbusiga ko'ra yoki Patent idorasining so'rovnomasiga ko'ra taqdim etilgan va ko'rib chiqishga qabul qilingan qo'shimcha materiallar kelib tushganda, ular talabnoma berilgan foydali model mohiyatini o'zgartirmasligi tekshiriladi. Agar tarkibida talabnomaning dastlabki materiallarida bo'lmagan va formulaga kiritish talab etilgan alomatlar bo'lgan qo'shimcha materiallar talabnoma berilgan foydali model mohiyatini o'zgartiradi deb e'tirof etiladi.

Alomatlarni foydali model formulasiga faqat talabnoma beruvchi tomonidan taqdim etilgan aniqlik kiritilgan formula tarkibida bo'lgan holda emas, balki talabnoma beruvchi ularni formulaga kiritishni so'ragan holda ham kiritish lozim deb hisoblanadi.

Qo'shimcha materiallarda keltirilgan va formulaga kiritilishi lozim bo'lgan alomatlar, agar patent berish uchun ariza, foydali model tavsifi, formulasi va chizmalar Patent idorasiga kelib tushgan sanada formulada yoki tavsifda ochib berilmagan bo'lsa, talabnomaning dastlabki materiallarida bo'lmagan deb e'tirof etiladi.

Agar talabnomaning dastlabki materiallarida foydali model alomati bajarilishining xususiy hollari ochilmagan holda umumiy tushuncha bilan berilgan bo'lsa, formulaga kiritilishi lozim bo'lgan alomat jumlasidan deb hisoblangan bunday xususiy holni qo'shimcha materiallarda taqdim etilishi talabnoma berilgan foydali modelning mohiyatini o'zgartiradi deb e'tirof etish uchun asos bo'ladi.

Tavsifda texnika darajasiga, shu jumladan eng yaqin analogga nisbatan keltirilgan alomatlar talabnoma berilgan foydali modelning talabnomaning dastlabki materiallari tarkibida bo'lgan alomatlari jumlasiga kirmaydi. Talabnoma foydali modellar guruhiga oid bo'lgan holda, tavsifda guruhning biron-bir foydali modeliga tegishli deb ko'rsatilgan alomatlar guruhdagi ayni shu foydali modelning talabnomaning dastlabki materiallari tarkibida bo'lgan alomatlari deb hisoblanadi.



Biri ikkinchisida foydalanish uchun mo'ljallangan foydali modellar guruhi bundan mustasno. Bu holda boshqasida foydalanish uchun mo'ljallangan bir foydali modelning talabnomaning dastlabki materiallari tarkibida bo'lgan alomatlari ikkinchi foydali modelning ham belgilari deb hisoblanadi.

Agar talabnoma berilgan foydali model avvaldan ma'lum bo'lgan qurilmani yangi vazifada qo'llanishiga oid bo'lsa, u holda foydali modelning mohiyatini o'zgartiruvchi deb talabnomaning dastlabki materiallariga nisbatan ma'lum obyektning o'zgacha vazifasiga yoki ma'lum obyektini ta'riflash uchun foydalaniladigan o'zgacha alomatlariga ko'rsatmani ichiga olgan qo'shimcha materiallar e'tirof etiladi.

208. Talabnoma berilgan foydali model haqidagi formulaga kiritilishi lozim bo'lgan alomatlar jumlasiga kirmagan va talabnomaning dastlabki materiallari tarkibida bo'lmagan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qo'shimcha materiallar foydali modelning mohiyatini o'zgartiradi deb hisoblanmaydi. Bunday ma'lumotlarga, xususan, foydali modelni amalga oshirish sharoitlari haqidagi yangi (qo'shimcha) ma'lumotlar, foydali modelni amalga oshirishdagi misollar, qo'shimcha texnikaviy natija olish imkoniyatini ko'rsatish, aniqliklar kiritilgan grafik materiallar va h.k. kiritilishi mumkin.

Talabnomaning dastlabki materiallari tarkibida bo'lmagan formulaga kiritilishi lozim bo'lgan alomatlar jumlasiga kirgan ma'lumotlar bilan bir qatorda talabnomani ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni ichiga olgan qo'shimcha materiallar faqat ko'rsatilgan alomatlariga tegishli qismida mohiyatni o'zgartiradi deb e'tirof etiladi.

Boshqa ma'lumotlar ekspertiza o'tkazishda e'tiborga olinadi.

209. Qo'shimcha materiallar talabnoma berilgan foydali modelning mohiyatini o'zgartiradi deb e'tirof etilgan holda talabnoma beruvchiga (ekspertizaning unga yuborilgan navbatdagi hujjatida) bunday xulosaga kelish uchun qo'shimcha materiallarga kiritilgan ma'lumotlarning qaysilari asos bo'lganligi haqida ma'lum qilinadi.

Bu holda talabnomani keyingi ko'rib chiqilishi ushbu qo'shimcha materiallarda taqdim etilgan foydali model formulasiga nisbatan, ammo talabnoma topshirilishi sanasida tavsifda, va shuningdek agar talabnomani topshirish sanasida talabnoma tarkibida bo'lgan formulada ham ochib berilmagan alomatlarni inobatga olmagan holda davom ettiriladi.

210. Talabnoma beruvchi tomonidan qo'shimcha materiallarda taqdim etilgan foydali modelning o'zgartirilgan formulasini tekshirishda o'zgartirishlar talabnoma berilgan foydali modelga tegishliligi aniqlanadi.

Agar talabnomani topshirish uchun to'langan patent boji formuladagi bandlar soniga muvofiq bo'lsa, dastlabki formula tegishli bo'lgan foydali modellar, patent boji kam to'langan holda esa, ko'rib chiqishga qabul qilingan talabnomaga tegishli foydali modellar talabnoma berilgan foydali modellar deb hisoblanadi.

Foydali modelning vazifasini ifodalaydigan dastlabki umumiy tushunchani formuladagi boshqa o'zgartirish bilan almashtirilganda, agar ko'rsatilgan tushunchalar bir xil ma'noli bo'lib, bir-biriga bog'liq yoki o'xshash bo'lsa, ya'ni ularning hajmlari to'liq yoki qisman mos tushsa, talabnoma berilgan foydali modelga tegishli deb e'tirof etiladi.

Foydali model formulasiga talabnoma berilgan foydali modelga tegishli bo'lmagan mustaqil bandlarni kiritishni ko'zda tutadigan o'zgartirishlar e'tiborga olinmaydi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi.

Foydali model formulasini o'zgartirilishi, shuningdek quyidagi hollarda talabnoma berilgan foydali modelga tegishli deb hisoblanadi:

foydali model sifatida talabnoma berilgan obyektning turi o'zgartirilganda, agar yangi ko'rsatilgan turi dastlabkisiga qaraganda foydali modelning dastlabki formulasidagi alomatlar ta'rifiga ko'proq darajada mosroq bo'lsa;

dastlab talabnoma berilgan foydali modelning "yangi vazifada qo'llanilishi" obyektini ko'rsatilgan yangi vazifadagi obyektga almashtirilganda, bunda obyekt haqidagi ma'lumotlar ustuvorlik sanasiga qadar hammaga ma'lum bo'lmagan holda obyektning qo'llanilishiga talabnoma berilganligi aniqlangan bo'lsa.

211. Qo'shimcha materiallar talabnoma berilgan foydali modelning mohiyatini o'zgartiradi deb e'tirof etilgan holda talabnoma beruvchiga (ekspertizaning unga yuborilgan navbatdagi hujjatida) bunday xulosaga kelish uchun qo'shimcha materiallarga kiritilgan ma'lumotlarning qaysilari asos bo'lganligi haqida ma'lum qilinadi.

Talabnoma berilgan foydali modelga tegishli bo'lmagan foydali model formulasidagi o'zgartirishlar e'tiborga olinmaydi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi.

#### 23-§. Talabnomani o'zgartirish

212. Qonunning 19-moddasiga muvofiq foydali modelga talabnoma patent berilishi to'g'risidagi qaror chiqarilgunga qadar ixtiroga patent berish uchun talabnomaga o'zgartirilishi mumkin.

Bunday o'zgartirish haqidagi ariza kelib tushganda uning to'g'ri rasmiylashtirilganligi va ariza bilan birga belgilangan miqdorda tegishli patent boji to'langanini tasdiqlaydigan hujjat mavjudligi tekshiriladi.

213. Ariza belgilangan talablarga rioya qilinmagan holda rasmiylashtirilgan bo'lsa, talabnoma beruvchiga bu haqida ma'lum qilinadi.

214. Ariza bilan birga belgilangan miqdorda tegishli patent boji to'langanini tasdiqlaydigan hujjat taqdim etilmagan yuridik ahamiyatga molik harakatlar amalga oshirilmaydi va bu haqida talabnoma beruvchiga xabar beriladi.

215. O'zgartirish amalga oshirilmagan talabnoma foydali modelga talabnomaligicha qoladi va unga nisbatan keyinchalik ushbu Qoidalar qo'llaniladi.

216. Agar ariza belgilangan talablarga rioya qilingan holda rasmiylashtirilgan bo'lib, u bilan birga belgilangan miqdorda tegishli patent boji to'langanini tasdiqlaydigan hujjat taqdim etilgan bo'lsa, talabnoma beruvchiga talabnomani

o'zgartirish amalga oshirilganligi haqida bildirishnoma yuboriladi, unda shuningdek keyingi ko'rib chiqish belgilangan tartibga muvofiq olib borilishi ma'lum qilinadi.

Ariza patent berish to'g'risidagi qaror qabul qilingandan keyin kelib tushgan holda, talabnoma beruvchiga talabnomani o'zgartirib bo'lmasligi haqida xabar qilinadi.

217. Talabnomani o'zgartirish haqidagi ariza topshirilgan sanagacha talabnoma beruvchi tomonidan foydali modelga talabnoma bo'yicha tuzatishlar yoki aniqliklar kiritish uchun qo'shimcha materiallar yoxud foydali modelning o'zgartirilgan formulasi taqdim etilgan bo'lsa, bu materiallarni ushbu Qoidalarga muvofiq tekshiriladi va tekshirish natijalari haqida talabnoma beruvchiga talabnomani o'zgartirish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari haqidagi bildirishnomada ma'lum qilinadi.

218. Chaqirib olingan yoki chaqirib olingan deb hisoblangan talabnomalar bo'yicha talabnomani o'zgartirish o'tkazilmaydi.

219. Agar talabnomani o'zgartirish haqidagi ariza Qonunning 20-moddasi uchinchi qismiga ko'ra chaqirib olingan deb hisoblangan talabnoma bo'yicha kelib tushgan bo'lsa, va ariza bilan birga o'tkazib yuborilgan muddatni tiklash to'g'risidagi iltimosnoma taqdim etilgan bo'lsa, iltimosnoma ushbu Qoidalarning 11-§iga muvofiq ko'rib chiqiladi. Muddatni tiklash imkoniyati borligi aniqlangan holda, talabnoma beruvchi bu haqida va talabnomani o'zgartirish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilinadi.

220. Talabnoma o'zgartirilganligi haqidagi bildirishnoma jo'natilgunga qadar talabnoma beruvchidan uning arizasini topshirilmagan deb hisoblash haqidagi iltimos (talabnomani o'zgartirish haqidagi arizani chaqirib olish) kelib tushgan taqdirda o'zgartirish o'tkazilmagan deb hisoblanadi, talabnomani o'zgartirish uchun to'langan patent boji qaytarilishi yoki belgilangan tartibda hisobga olinishi mumkin.

Foydali modelga talabnomani ixtiroga patent berish uchun talabnomaga o'zgartirilganligi haqidagi bildirishnoma jo'natilgandan keyin uning arizasini topshirilmagan deb hisoblash haqida talabnoma beruvchidan kelib tushgan iltimos

talabnomani yana qayta o'zgartirish va to'langan patent boji qaytarilishi uchun asos bo'la olmaydi.

221. Ixtiroga talabnomani o'zgartirish natijasi bo'lgan foydali modelga talabnoma ushbu Qoidalarning 16-§iga muvofiq ko'rib chiqiladi.

Ixtiroga talabnoma bo'yicha uni foydali modelga talabnomaga o'zgartirish haqidagi ariza topshirilgan sanagacha takdim etilgan qo'shimcha materiallar foydali modelga talabnoma ekspertizasini o'tkazishda ularni tekshirish natijalarini e'tiborga olish bilan hisobga olinadi.

#### 24-§. Patent berish to'g'risidagi qaror

222. Talabnoma beruvchi tomonidan taklif etilgan formula bilan ifodalangan talabnoma berilgan foydali model (agar foydali modellar guruhiga talabnoma berilgan bo'lsa, guruhning har bir foydali modeli) hamma patentga layoqatlilik shartlariga muvofiqligi aniqlangan holda, talabnoma beruvchiga shu formula bilan foydali modelga patent berilishi mumkinligi haqida va ushbu bildirishnoma jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida ekspertiza xulosalariga nisbatan o'z fikrini ma'lum qilish taklif etilgan bildirishnoma yuboriladi.

Agar tavsif va chizmalarda kamchiliklar bo'lib, avval talabnoma beruvchi ularni yo'qotish haqida ogohlantirilmagan bo'lsa, taklif jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida aniqliklar kiritilgan tavsif va/yoki chizmalarni taqdim etish haqidagi taklif yuboriladi.

Bu holda, talabnoma beruvchiga bu muddat kamlik qilsa, u ushbu muddat o'tgunga qadar patent bojini to'lash sharti bilan boshqa, aniqliklar kiritilgan tavsif va/yoki chizmalarni taqdim etadigan muddat haqidagi taklif jo'natilgan sanadan e'tiboran olti oydan oshmagan muddat haqida ma'lum qilishi mumkinligi xabar qilinadi.

Talabnoma beruvchi, shuningdek agar eslatib o'tilgan uch oylik muddat ichida aniqlik kiritilgan tavsifni yoki ko'rsatib o'tilgan mazmundagi xabarni taqdim etmasa, bunday xabar kelgan holda esa, aniqlik kiritilgan tavsifni ushbu xabarda ko'rsatilgan muddatda taqdim etmasa, talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanadi.

223. Talabnoma beruvchidan ekspertizaning fikriga nisbatan roziligi kelib tushganda unga foydali modelga bildirishnomada ko'rsatilgan formula bilan patent berish to'g'risidagi qaror yuboriladi.

Agar talabnoma berilgan formula foydali model mohiyatini ifodalasa va tavsifga to'liq asoslangan bo'lsa, lekin eng yaqin analogni (yoki umuman analogni) hisobga olmay tuzilgan bo'lsa, yoki tarkibida talabnoma berilgan obyekt alomatlari bilan bir qatorda boshqa obyekt alomatlari bo'lib, talabnoma beruvchi o'zi tuzgan tahrirdagi formulani qoldirishni qattiq turib talab qilsa, patent berish to'g'risidagi qarorda talabnoma beruvchining tahriridagi formula keltiriladi.

Talabnoma beruvchi taklif qilgan tahrirdagi formula, shuningdek formuladagi alomatlar standart bo'lmagan yoki hamma qabul qilmagan atamalardan foydalangan holda ta'riflangan bo'lsa (lekin bu ularni aynanlashtirishga to'sqinlik qilmasa), va talabnoma beruvchi formulani tuzaTishdan bosh tortgan bo'lsa, va shuningdek agar, Qonunning 22-moddasi to'rtinchi qismiga muvofiq ko'rib chiqilgan barcha foydali modellarning patentga layoqatliligi aniqlangan holda ham keltiriladi.

Talabnoma beruvchi tomonidan taklif etilgan foydali model formulasida orfografiyaga, tinish belgilariga oid va boshqa xatolar bo'lgan taqdirda, patent berish to'g'risidagi qarorni tayyorlashda formulaga tegishli tuzatishlar kiritiladi.

224. Belgilangan patent boji to'langan holda Patent idorasi Qonunning 24-moddasiga muvofiq foydali modelni Foydali modellar Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilishini amalga oshiradi va Qonunning 25-moddasiga muvofiq foydali modelni ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumotlarni e'lon qiladi.

225. Talabnoma beruvchi tomonidan taklif etilgan formula bilan ifodalangan talabnoma berilgan foydali model patentga layoqatlilikning hech bo'lmaganda birorta shartiga ("sanoatda qo'llanilishi", "yangiligi" shartiga) muvofiq emasligi aniqlangan holda, talabnoma beruvchiga foydali modelga patent berilishi mumkin emasligi haqida ushbu bildirishnoma jo'natilgan sanadan e'tiboran uch oy ichida ekspertiza xulosalariga nisbatan o'z fikrini ma'lum qilish taklif etilgan bildirishnoma yuboriladi.

Talabnoma beruvchiga, shuningdek agar, eslatib o'tilgan uch oylik muddat ichida ko'rsatib o'tilgan mazmundagi xabarni taqdim etmasa, talabnoma chaqirib olingan deb hisoblanishi haqida xabar qilinadi.

226. Patent idorasi tomonidan o'tkazib yuborilgan muddat tiklangan holda ish yuritish davom ettirilishi mumkin.

227. Talabnoma beruvchidan ekspertizaning fikriga nisbatan roziligi kelib tushganda patent berishni rad etish to'g'risidagi qaror yuboriladi.

Patent berishni rad etish uchun sabab bo'lgan holatlar bilan tanishgandan so'ng talabnoma beruvchi tomonidan talabnoma berilgan foydali modelning patentga layoqatliligi haqidagi dalillar taqdim etilgan bo'lib, ammo ular ekspertiza xulosasini o'zgartirmagan holda, qarorda ko'rsatib o'tilgan dalillarning tahlili keltiriladi.

Agar qarorda axborot manbaiga havola keltirilgan bo'lsa, uning bibliografiya ma'lumotlarini ko'rsatishda ushbu Qoidalarining 181-bandida ko'rsatilgan shartlarga amal qilinishi lozim.

228. Agar bitta mustaqil band va bog'liq bandlarga ega bo'lgan ko'p zvenoli formulada ta'riflangan talabnoma berilgan foydali model mustaqil bandga nisbatan patentga layoqatlilikning biron-bir shartiga muvofiq emasligii aniqlangan holda va talabnoma beruvchi formulaning ushbu bandni tuzatishdan bosh tortgan holda patent berishni rad etish to'g'risida qaror chiqariladi.

229. Agar talabnoma berilgan foydali modellar guruhining ko'p zvenoli formulasida ta'riflangan foydali modellardan biri (uning turli mustaqil bandlarida yoki bittasida), yoki turli muqobil alomatlarni ichiga olgan alomatlar majmuidan biri patentga layoqatlilikning shartlaridan biriga muvofiq emasligii aniqlangan bo'lsa va

talabnoma beruvchi formulani tuzatishdan yoki ushbu foydali model ta'rifini formuladan chiqarib tashlashdan bosh tortgan holda patent berishni rad etish to'g'risida qaror chiqariladi.

Bu holda qarorda patentga layoqatli deb xulosa olingan boshqa foydali modelning (foydali modellarning) patentga layoqatligi tasdiqlanadi.

230. Agar ko'rilyotgan talabnoma bo'yicha foydali modelning patentga layoqatligi aniqlangan bo'lib, lekin unga aynan o'xshash foydali model yoki ixtiroga, xuddi shunday ustuvorlik sanasiga ega bo'lgan va chaqirib olinmagan yoki chaqirib olingan deb hisoblanmagan boshqa talabnoma bo'lsa, ko'rilyotgan talabnomaning talabnoma beruvchisiga bu haqida va uning talabnomasi bo'yicha Qonunning 18-moddasi uchinchi qismida belgilangan shartlar bajarilgan holda patent berish mumkinligi haqida ma'lum qilinadi.

Boshqa talabnomaning talabnoma beruvchisi roziligi bo'lgan holda, ko'rilyotgan talabnomaning talabnoma beruvchisiga aynan o'xshash foydali model yoki ixtiroga talabnomaning bibliografiya ma'lumotlarini patent berish haqidagi ma'lumotlar e'lon qilingunga qadar ma'lum qilishga va uning mazmunini ochishga yo'l qo'yiladi.

Agar o'xshash foydali modellarga yoki foydali model va ixtiroga talabnomalar aynan o'sha bir talabnoma beruvchi tomonidan topshirilgan bo'lsa, u holda bildirishnomada unga uning tomonidan ko'rsatiladigan faqat birgina talabnoma bo'yicha patentning berilishi mumkinligi xabar qilinadi.

231. Foydali modellarning (yoki foydali model va ixtironing) aynan o'xshashligi talabnoma beruvchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan formulaning oxirgi tahririga asosan belgilanadi.

Foydali modellar (yoki foydali model va ixtiro), agar formuladagi mustaqil bandlarning mazmunlari to'liq mos tushsa, aynan o'xshash deb e'tirof etiladi.